

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



O'QUV USLUBIY  
MAJMUUA

TOSHKENT-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIV-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“SUG‘URTA ISHI”**

**YO‘NALISHI**

**“Sug‘urta bozorining rivojlanish  
tendensiyalari va strategiyalari”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘QUV USLUBIY  
MAJMUA**

**Toshkent - 2024**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** Qo’ldoshev Q.M.- TDIU, “Moliya bozori va sug’urta ishi” kafedrası professor, iqtisodiyot fanlari doktori

**Taqrizchi:** Yadgarov A.A.- TDIU “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
( “\_\_” \_\_\_\_\_ 2023-yildagi \_\_\_\_ -sonli bayonoma)

## MUNDARIJA

|   |           |
|---|-----------|
| <b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>  | <b>4</b>  |
| <b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM<br/>METODLARI .....</b> | <b>12</b> |
| <b>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>                                    | <b>21</b> |
| <b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>                                     | <b>44</b> |
| <b>V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI .....</b>   | <b>67</b> |
| <b>VI. GLOSSARIY .....</b>  | <b>68</b> |
| <b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>   | <b>81</b> |

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni jahonda va mamlakatimizdagi sug‘urta sohasidagi muammolarni tahlil etish, samarali yechimlar va qarorlarni ishlab chiqish va sug‘urta sohasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalari faoliyatida qo‘llash jarayonida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** tinglovchilarni zamonaviy sug‘urtadagi dolzarb muammolar haqidagi bilimlarini takomillashtirish, statistik metodologiyani takomillashtirishga qaratilgan ishlar bilan tanishtirish, ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**Modulning vazifalari:** Qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, sug‘urta bozorini o‘rganish, sug‘urta bozorida taklif etilayotgan sug‘urta xizmatlarining turlari va ularning xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish, sug‘urta bozorida mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirgan holda ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:**

“Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- sug'urta bozorida olib borilayotgan tashkiliy, huquqiy ishlarni;
- sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKTni joriy etish jarayonlarini;
- sug'urta xizmatlarini taklif etishda jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirishni;
- sug'urtaga bo'lgan talabni o'rganishni;
- sug'urta xizmatlarini taklif etishda yo'l qo'yiladigan xatolarni tahlil qilishni *bilishi* kerak.

### **Tinglovchi:**

- sug'urtaning turlari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisoblashni;
- sug'urta bozorlarida yuzaga keladigan risklarini aniqlash va zararlilik darajasini kamaytish usullarini keng tadbiiq etish bo'yicha *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- sug'urta faoliyatining big data, E-polis tizim faoliyatini o'rganish va tahlil qilish.
- sug'urta sohasi bo'yicha zamonaviy texnologiyalar asosida *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

## **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari” kursi ma'ruza, amaliy va ko'chma mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Sug'urta ishining dolzarb muammolari” o'quv moduli bilan

uzviy bog‘langan holda pedagoglarning statistika sohalari bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar sug‘urta va sug‘urta turlarining risklarini tahlil qilish, sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini amal oshirishi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

| <b>№</b> | <b>Modul mavzulari</b>  | <b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b> |                |                          |                           |                        |
|----------|---|-----------------------------------|----------------|--------------------------|---------------------------|------------------------|
|          |   | <b>Jami</b>                       | <b>Nazariy</b> | <b>Amaliy mashg‘ulot</b> | <b>Ko‘chma mashg‘ulot</b> | <b>Mustaqil ta‘lim</b> |
| 1.       | Milliy sug‘urta bozorida yagona ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda “Big data” texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar. | 10                                | 4              | 4                        | 2                         |                        |
| 2.       | Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning rivojlanish tendensiyalari.                              | 10                                | 4              | 4                        | 2                         |                        |
| 3.       | Dunyo mamlakatlarida aqlli sug‘urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari.  | 6                                 | 2              | 2                        | 2                         |                        |
|          | <b>Jami:</b>  | <b>26</b>                         | <b>10</b>      | <b>10</b>                | <b>6</b>                  |                        |

### **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: Milliy sug‘urta bozorida yagona ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda “Big data” texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar. (4 soat)**

Milliy sug‘urta bozorida yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar va boshqa sug‘urta xizmatidan foydalanuvchilarham sug‘urta faoliyati haqida ma‘lumotga ega bo‘lishida qo‘luylik yaratilishi va ma‘lumotlarni tahlil qilish imkoniyatining kengayishiga

olib keladi. Bu esa ma'lumotlarni umumlashtirish, solishtirish imkoniyatini beradi.

## **2-mavzu: Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sug'urta xizmatlari ko'rsatishning rivojlanish tendensiyalari. (4 soat)**

Ushbu mavzu hozirgi rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyot etayotgan davrda sug'urtani rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilayotgani va sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchiga qulaylik yaratishi usullaridan foydalanish imkoniyatining tug'ilganligi va uni amaliyotda qo'llashning avfzalliklari ko'ib chiqish imkoniyatining yaratilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish bilan izohlanadi.

## **3-mavzu: Dunyo mamlakatlarida aqlli sug'urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari. (2 soat)**

Zamon rivojlangani sabab fan texnika ham rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotni yuritish va ma'lumotlarni elektron tarzda yuritish davr talabiga aylandi. Ushbu mavzuda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni rivojlanish ko'rsatkichlarini va tahlil qilish imkoniyatini yaratiladi.

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu: Milliy sug'urta bozorida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirishda "Big data" texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar. (4 soat)**

Milliy sug'urta bozorida yagona ma'lumotlar bazasini yaratish sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar va boshqa sug'urta xizmatidan foydalanuvchilarham sug'urta faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lishida qo'luylik yaratilishi va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatining kengayishiga olib keladi. Bu esa ma'lumotlarni umumlashtirish, solishtirish imkoniyatini beradi.

#### **2-mavzu: Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sug'urta xizmatlari ko'rsatishning rivojlanish tendensiyalari. (4 soat)**

Ushbu mavzu hozirgi rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyot etayotgan davrda sug'urtani rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilayotgani va sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchiga qulaylik yaratishi usullaridan foydalanish imkoniyatining tug'ilganligi va uni amaliyotda qo'llashning avfzalliklari ko'ib chiqish imkoniyatining yaratilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish bilan izohlanadi.



### **3-mavzu: Dunyo mamlakatlarida aqlli sug'urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari. (2 soat)**

Zamon rivojlangani sabab fan texnika ham rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotni yuritish va ma'lumotlarni elektron tarzda yuritish davr talabiga aylandi. Ushbu mavzuda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni rivojlanish ko'rsatkichlarini va tahlil qilish imkoniyatini yaratiladi.

## **KO'ChMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-mavzu: Milliy sug'urta bozorida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirishda "Big data" texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar. (2 soat)**

Milliy sug'urta bozorida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirishda big data texnologiyalarini avzallik va uning ishlash metodlari haqida bilimlarni shakllantirish.

### **2-mavzu: Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sug'urta xizmatlari ko'rsatishning rivojlanish tendensiyalari. (2 soat)**

Sug'urta xizmatlarining o'sishi va uning ma'lum bir sabablarga ko'ra tushishi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish.

### **3-mavzu: Dunyo mamlakatlarida aqlli sug'urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari. (2 soat)**

Aqlli sug'urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari orqali mijozlarga yaratiladigan imkoniyalar va sug'urta xizmatlariga talabning o'sishiga ta'sirini o'rganishdan iborat.

## **O'qitish shakllari**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda qabul qilingan “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-730-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabr “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4186-sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023

yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sonli Qarori

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda “Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 780-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

23. Agarwal, J. and K.K. Shukla, 2014. Awareness and impact of globalization of life insurance in India. International Journal of Application or Innovation in Engineering & Management, 3(10): 1-8. View at Google Scholar (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud)

24. Banerjee, T.S., 2014. Effects of age and hierarchy levels on awareness of disaster insurance. Global Journal of Finance and Management, 6(9): 893-896. View at Google Scholar (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

25. Karthik, T. and L. Ramalingam, 2013. Farmers'awareness about crop insurance schemes: An analytical study. Clear International Journal of Research in Commerce & Management, 4(8): 66-72. View at Google Scholar (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

26. Qo‘ldoshev Q.M. Sug‘urta texnologiyalari. Darslik. -Tokent, Iqtisodiyot, 2021. (ARMda elektron va bosma ko‘rinishda bor).

27. Qo‘ldoshev Q.M. “Sug‘urta nazariyasi” darslik. T. “Yangi nashr” 2022 y.

28. Hasanov F.R. O'zbekistonda kiber risklarni sug'urtalash masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2021.

#### **IV. Internet saytlar**

29. <http://edu.uz>
30. <http://lex.uz>
31. <http://bimm.uz>
32. <http://ziyonet.uz>
33. <http://natlib.uz>
34. <https://uzts.uz/>

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

|                          |                          |
|--------------------------|--------------------------|
| <b>S – (strength)</b>    | • кучли томонлари        |
| <b>W – (weakness)</b>    | • заиф, кучсиз томонлари |
| <b>O – (opportunity)</b> | • имкониятлари           |
| <b>T – (threat)</b>      | • тўсиқлар               |

☞ “Sug’urta polislarini onlayn usulda sotish” g‘oyasini “SWOT – tahlil” asosida tahlil qilish.

|          | <i>Tahlil tarkiblari</i>                                   | <i>Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari</i>  |
|----------|--|---|
| <b>S</b> | Kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)   | - sug’urtalanuvchilar uchun ortiqcha xarajat va vaqt sarflamasdan sug’urta polisini sotib olish imkonini beradi;<br>- sug’urtalovchining sotish xarajatlarini kamaytiradi;<br>- sotuv tezligini oshiradi.   |
| <b>W</b> | Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari) | - potensial sug’urtalanuvchi bilan yuzma-yuz muloqot bo’lmaydi;<br>- qimmat narxdagi kompyuter texnikalarini sotib olish zaruriyatini keltirib chiqaradi;<br>- chekka hududlarda internet tarmog’ining mavjud emasligi imkoniyatni cheklab qo’yadi.   |
| <b>O</b> | Imkoniyatlar (tashqaridan)                                 | - sug’urta agentlari xizmatidan foydalanishni kamaytirish imkonini beradi;<br>- inson omilini kamaytirish evaziga korrupsion holatlarning oldini oladi;<br>- uzoq masofadagi hududlarni o’zlashtirish imkonini beradi.  |
| <b>T</b> | Xavflar (tashqaridan)                                      | - haqiqiy bo’lmagan polislarining ko’payishiga sharoit yaratadi;<br>- sotuv texnikalarining virus va boshqa ta’sirlar natijasida tizimning to’xtab qolishi ehtimoli;<br>- xaridorlarda onlayn sotib olish bo’yicha bilim va tushunchalarning kamligi mijozlar sonining kamayishiga sabab bo’ladi. |

### Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари тўширилган таркатма материалларни таркатали:



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрафлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича таркатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу яқинланади.

#### Namuna:

| Kiberrisklarni sug'urtalashni kengaytirish yo'nalishlari |            |  |            |   |            |
|--|------------|--|------------|---|------------|
| Maxsus dasturlar ishlab chiqish                          |            | Aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish |            | Kiberrisklar sug'urtasi bo'yicha xodimlar malakasini oshirish |            |
| afzalligi  | kamchiligi | afzalligi  | kamchiligi | afzalligi   | kamchiligi |
|  |            |  |            |   |            |
| <b>Xulosa:</b>   |            |  |            |   |            |

#### “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so'z bo'lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan

iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

| <b>Ish bosqichlari</b>   | <b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>  |
|--|--|
| <b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish   | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>                             |
| <b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash  | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>   |
| <b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>                               |
| <b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.   | <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul> |

Masalan, mamlakatimiz milliy sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlari o'sish sur'atining hozirgi (2021 yilga nisbatan 2022 yildagi o'sish) 66,9% darajasida sug'urta mukofotlari hajmini 2 baravar oshirish uchun 1,5 yil talab etiladi. Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2016 yildagi 25,2% darajasida bu ko'rsatkichga 4 yilda erishish mumkin edi. Keyingi yillarda sug'urta xizmatlari hajmi o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Sug'urta xizmatlari o'sish sur'ati bilan mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari o'rtasida korelyatsion bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlikka izoh keltiring.

## Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Sug'urta xizmatlari bilan mamlakatdagi iqtisodiy o'sish o'rtasidagi korelyatsion bog'liqlik sabablarini belgilang.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### **Namuna.**

**Fikr:** "Sug'urta xizmatlari hajmining oshishi natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi".

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


### **"Assesment" metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### **"Tushunchalar tahlili" metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish,



baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** "Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili"

| Tushunchalar                                 | Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi? | Qo'shimcha ma'lumot |
|--|---|---------------------|
| Sug'urta kompaniyalarida ma'lumotlar ba'zasi |   |                     |
| Raqamli axborot texnologiyalari              |   |                     |
| Sug'urta polislarini onlayn sotish           |   |                     |
| Kiberrisklarning iqtisodiy oqibati           |   |                     |
| Informatsion texnologiyalar                  |   |                     |

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


### Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: O‘zbekiston sug‘urta bozorining xalqaro sug‘urta bozorlari bilan hamkorligini o‘ziga xos xususiyatlarida mobil ilova ma’lumotlarini saqlash turlari bo‘yicha**



### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi. **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Mikrosug’urta xizmatlari va uni O’zbekistonda rivojlantirish muammolari” bo‘yicha tushuncha bering. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!**

| <b>Harakatlar mazmuni</b>  | <b>Yakka baho</b> | <b>Yakka xato</b> | <b>To‘g‘ri javob</b> | <b>Guruh bahosi</b> | <b>Guruh xatosi</b> |
|--|-------------------|-------------------|----------------------|---------------------|---------------------|
| Mikrosug’urtaning mohiyati va xususiyatlari  |                   |                   |                      |                     |                     |
| Mikrosug’urtani chekka hududlarda sug’urta xizmatlarini rivojlantirishdagi o‘rni   |                   |                   |                      |                     |                     |
| Mikrosug’urtaning aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalashdagi o‘rni |                   |                   |                      |                     |                     |
| Mikrosug’urtani sug’urta kompaniyasi va davlat hamkorligida amalga oshirish        |                   |                   |                      |                     |                     |
| Mikrosug’urtaning afzalliklari   |                   |                   |                      |                     |                     |

**“Insert” metodi**

♣ **Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| <b>Belgilar</b>                                  | <b>1-matn</b> | <b>2-matn</b> | <b>3-matn</b> |
|--|---------------|---------------|---------------|
| “V” – tanish ma’lumot.                           |               |               |               |
| “?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak. |               |               |               |
| “+” bu ma’lumot men uchun yangilik.              |               |               |               |
| “– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?   |               |               |               |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

## Ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

📌 **O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqish.**

*Eslatma: topshiriqni bajarishda yo'riqnomaga amal qiling.*

### YO'RIQNOMA

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning **ta'lim modeli** jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- *tanlangan ta'lim modeli*: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

**O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi** uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

**Ilova.** O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

### O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

**Mavzu** (raqami) .....(nomi).....

|   |  |
|---|--|
| <i>Vaqt: ...soat</i>  | <i>Talabalar soni: ...</i>   |
| <i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>   | Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq.), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot                 |
| <i>Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>   | 1. ...<br>2. ...   |
| <i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>   | Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish   |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i><br>...bilan tanishtirish;<br>...tasnifini berish;<br>...tushuntirish;<br>... ochib berish va boshq. | <i>O'quv faoliyati natijalari:</i><br>...ko'rsatadilar;<br>...tasniflaydilar;<br>...aytib beradilar;<br>...tartibli ravishda ochib beradilar |
| <i>O'qitish metodlari</i>   | Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.   |
| <i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>  | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash  |
| <i>O'qitish vositalari</i>  | Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.  |
| <i>O'qitish sharoiti</i>  | Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar  |
| <i>Qaytar aloqaning yo'l va vositalari</i>  | Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov va boshq.<br>Yozma nazorat: referat, test va boshq.   |

### O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti                        | Faoliyat   |   |
|---|--|---|
|   | ta'lim beruvchi  | ta'lim oluvchilar   |
| 1-bosqich.<br>O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi.<br>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.<br>1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi   | Tinglaydilar, yozib oladilar.<br><br>Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.             |
| 2-bosqich.<br>Asosiy (daq.)                     | 2.1. Tezkor-so'rov / savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi.<br>2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi  | Javob beradilar<br>Yozadilar.<br>Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.    |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy (daq.)                    | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.<br>3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi . | O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar.<br>Savol beradilar<br>Topshiriqni yozadilar |

### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-MAVZU. Milliy sug‘urta bozorida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirishda “Big data” texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar. (4 soat)**

---

#### **Reja:**

1. Sug‘urta sohasida yagona ma’lumotlar bazasining o‘rni va zarurligi.
2. “Big data” texnologiyasi va uni qo‘llash masalalari.
3. “Big data” texnologiyasi asosida ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash.
4. O‘zbekistonda “Big data” texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari va muammolari.

#### **📌 Tayanch iboralar:**

Axborotlashgan jamiyat, *axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, sug‘urtada axborot texnologiyalari, ma’lumotlar bazasi, big data texnologiyasi.*

#### **1.1. Sug‘urta sohasida yagona ma’lumotlar bazasining o‘rni va zarurligi.**

XXI asrda, iqtisodiyotning turli sohalarida axborot tobora markaziy o‘rinni egallamoqda, zamonaviy jamiyatni raqamlashtirish davr talabiga aylanmoqda. Bugungi kunda foydalanilayotgan ma'lumotlar hajmi yuzlab terabayt va petabaytlarni tashkil etmoqda. Sanoat, biznes, tibbiyot, sug‘urta sohasida strategik qarorlarni qabul qilish va biznes jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur matn, raqamli, audio, foto, videoma'lumotlar oqimi doimiy ravishda oshib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, video, audio va geolokasiya xizmatlarining rivojlanishi natijasida axborot mahsulot va xizmatlariga talab doimiy ravishda oshib bormoqda. Mijozlarga bunday xizmatlarni taklif qilish uchun korxonalar va tashkilotlarda turli manbalardan olingan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish zarur. Tahlil qilish natijasida davlat boshqaruv organlari, telekommunikasiya va internet provayderlari, banklar, energetika va tijorat kompaniyalari uchun to‘plangan ma'lumotlar strategik ahamiyatga ega aktivga aylanadi va shu bilan birga, ularning faoliyat natijalari boshqaruv samaradorligiga bog‘liqdir. Axborot hajmining oshishi ko‘p miqdordagi ma'lumotlarni samarali qayta ishlashga qodir bo‘lgan dasturiy ta'minotning rivojlanishi, shuningdek, axborotlarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va uzatish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirish bilan birga amalga oshiriladi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun mo‘ljallangan platformaga ehtiyojning oshishi va “Big Data” (“Katta ma'lumotlar” deb nomlangan) xizmatlarini rivojlantirishning eng dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan bunday ma'lumotlarni minimal xarajat bilan tezda qayta ishlashga qodir texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda .

Accenture konsalting kompaniyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sug‘urta kompaniyalari rahbarlarining 79 foizi Big Data texnologiyasidan

foydalanmaydigan raqobatchilarning raqobatda yutqazib qo'yishlari ehtimoli yuqori ekanligini ta'kidlashgan .

Sug'urta sohasi riskka asoslangan soha bo'lganligi tufayli har doim ma'lumotlar tahliliga asoslangan holda ish ko'radi. Baxtsiz hodisalar statistikasi va sug'urtalangan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari odamlarni turli xavf toifalariga guruhlash va foyda hamda xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Kyivstar kompaniyasi mutaxassislari Big Data bilan ishlashni kompaniya ichkarisidan boshlashni tavsiya etadi. Katta ma'lumotlar algoritmlarini amalga oshirish, aqliy fikrlashni talab qiladigan ko'plab jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Ya'ni: tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urtalangan shaxsning kasallik tarixini tezda tekshirish, arizalarni ko'rib chiqishni avtomatlashtirish va shu asosda mijozlarga tez hamda sifatli xizmatlarni taqdim etish. Raqamli texnologiyalardan foydalanish xodimlarning vaqtini 50 % gacha tejashga yordam beradi, ushbu imkoniyatdan ular samarali foydalangan holda, tejalgan vaqtlarini ko'proq daromadli ishlarga sarflashlari mumkin bo'ladi. Katta ma'lumotlar texnologiyasi kompaniyada qo'lda amalga oshirib kelingan ko'plab jarayonlarni komp'yuterlashtirishga yordam beradi, ilovalarni qayta ishlash va boshqaruv xarajatlarini kamaytish imkonini beradi. Raqobat sharoitida bu tadbirlar sug'urta xizmatlari narxining pasayishiga olib keladi, natijada yangi mijozlar paydo bo'ladi. Masalan, Kyivstar kompaniyasi tomonidan Ukraina sug'urta kompaniyalari uchun quyidagi xizmatlarni taklif etmoqda :

- mijozning profilini tahlil qilish;
- sug'urta to'g'risidagi takliflarni berish uchun maqsadli auditoriyalarni aniqlash;
- sug'urta hodisalari ro'y berishining skoring prognozini amalga oshirish.

Sug'urta sohasida katta ma'lumotlarni qo'llash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- marketing va sug'ura polislarini sotish;
- sug'urtaga qabul qilinayotgan riskni baholash va tariflarni belgilash;
- sug'urta tovlamachiligiga qarshi kurash;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta.

Shu bilan birga, katta ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ma'lumotlar bazasiga ishonchsiz ma'lumotlarning kirib qolishi;
- modellashtirishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi;
- opportunistik (o'z manfaati yo'lida) hatti-harakatlarning yuzaga kelishi;
- ma'lumotlar maxfiyligiga duch kelish natijasida ularni olish imkoniyatining yo'qolishi.

Keltirilgan muammolarni katta ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalasiga jiddiy qaragan holda, ya'ni kiritilayotgan ma'lumotlarni ishonchli manbalardan olishga va ularni ekspertizadan o'tkazish orqali yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish mumkin deb hisoblaymiz.

## 1.2. “Big data” texnologiyasi va uni qo'llash masalalari.

«Big Data» atamasi «katta ma'lumotlar» degan ma'noni bildirib, uni birinchi marta 2008-yilda «Nature» jurnalining muharriri Klifford Linch ishlatgan. U dunyoda axborot hajmlarining jadal sur'atlarda o'sishi haqida gapirib, faqatgina yangi vositalar va yanada ilg'or texnologiyalar ularni o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidlagan. Linch «katta ma'lumotlar»ga sutkasiga 150 Gb hajmda bo'lgan har qanday ko'rinishdagi ma'lumotlar tegishli deb hisoblaydi, ammo hanuzgacha ma'lumotlarni yagona o'lchov birligi mavjud emas.

Big Data (katta ma'lumotlar) texnologiyasi bu – katta hajmdagi tizimlashgan va tizimlashmagan ma'lumotlarni qayta ishlash va interpretasiyalash instrumentlari va usullari yig'indisidir. Bunday katta ma'lumotlarning manbalari bo'lib, turli ko'rinishdagi qurilmalarning ma'lumotlari, ijtimoiy tarmoqlar va servislarning (masalan yandeks karta) ma'lumotlari hamda uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar (masalan sug'urtalanuvchining sug'urta tarixi) bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda har qanday shaxs katta hajmdagi ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan, elektron pochta hamda onlayn-to'lov tarmoqlaridan oladi. Mazkur shaxs olayotgan ma'lumotlar tarkibi va xususiyatidan kelib chiqib uning xohish-istaklarini aniqlash mumkin. Bunday tizimlashmagan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, sug'urta kompaniyalari yangi mijozlarni jalb etish uchun maqsadli reklama kompaniyalarini tashkil etishlari mumkin.

Har qanday sohadagi mijozlar o'z sohasida mutaxassis bo'lgan kompaniyalar bilan ishlashni xoxlashadi. Agentliklarning ma'lum sohaga ixtisoslashuvi ko'proq xoxlovchilarni jalb qilish imkonini beradi, chunki bunday holatda potensial sug'urtalanuvchi amaldagi sug'urtalanuvchilarda qanday holatlarda va qanday hajmda qoplama olish imkoniyati borligi va ular buning uchun qancha sug'urta badali to'layotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Boshqa segmentlarga nisbatan, ayniqsa sayohat sug'urtasida katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish imkoniyati yuqori va ular bu imkoniyatdan samarali foydalanishadi. Polis bahosining pastligi va chet el sayohati uchun sug'urtaning ko'p hollarda majburiyligi sug'urtalanish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtini qisqartiradi. Big Data esa mijozlar bilan bo'ladigan sug'urtaviy munosabatlarni tezlashtiradi, muloqotni avtomatlashtiradi va tezda foydali taklifni ishlab chiqadi.

Mulk va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash landshafti ko'proq kelajagi bor yo'nalishlar hisoblanadi, chunki Big Data risklar va mijozning hatti-harakati o'rtasidagi empirik aloqalarni aniqlash imkoniyatiga ega. Misol uchun, ba'zi avtokorxonalar yo'l sharoitlarini xabar qilingan baxtsiz hodisalar jami asosida baholaydilar va mijozlarning yo'nalishlarini tekshiradilar.

Katta ma'lumotlarni joriy qilish uzluksiz ravishda o'sib bormoqda va sug'urta kompaniyalari ushbu maqsadlar uchun katta hajmda mablag'lar kiritmoqda. Natijada sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaxshilanmoqda va narxi pasaymoqda.

Big Data texnologiyalarini samarali yo'lga qo'yish sug'urta kompaniyasida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish darajasi bilan bog'liq. Zamonaviy elektron-raqamli dunyo sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiluvchi risklarni imkon qadar aniq va to'g'ri baholash maqsadida sug'urtalovchilarni



keng qamrovli ma'lumotlar bilan ta'minlab, sug'urta faoliyati uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Shu bilan birga, risklarni baholashning sifatli modelini shakllantirishga va sug'urta hodisalarining yuz berish ehtimolini prognoz qilishga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ommaviylashuvi va takomillashuvi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiyotning tuzilmasi va ta'limga ta'sir ko'rsatadi, kommunikasiyalar, hisoblash quvvatlari, axborot tizimlari va servislarga yangi talablarni belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda rivojlangan platformalarsiz texnologiyalar, institusional va infratuzilmaviy muhitlarsiz bozorlar va faoliyat sohalarining dinamik rivojlanishi amalga oshmasligi muqarrar .

### **1.3. “Big data” texnologiyasi asosida ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash.**

Dunyoda raqamlangan ma'lumotlar hajmi tinimsiz o'sib bormoqda. IBC kompaniyasining ma'lumotlariga qaraganda, 2003 yilda 5 eksabayt (1 eksabayt = 1 milliard gigabayt) ma'lumot yig'ilgan. 2015-yil may oyiga qadar dunyoda yig'ilgan ma'lumotlar hajmi 6,5 zettabaytdan oshgan bo'lsa, 2020-yilda insoniyat 40-44 zettabayt raqamli ma'lumot hosil qilgan.

«Big Data» – bu juda tez sur'atlarda o'sib borayotgan katta hajmdagi tizimli va tizimsiz raqamli ma'lumotlar to'plami. «Big Data» biznes jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, to'plangan ma'lumotlarga asoslangan eng samarali qarorlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida axborotni saqlash va qayta ishlashning innovatsion usullarini o'z ichiga oladi.

«Katta ma'lumotlar» tushunchasi o'zi nisbatan yangi bo'lsa-da, aslida uning kelib chiqishi birinchi ma'lumotlar markazlari va relyasion ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish boshlangan 1960-1970-yillarga to'g'ri keladi.

2005-yilda odamlar Facebook, YouTube va boshqa onlayn xizmatlar foydalanuvchilari qancha ma'lumot ishlab chiqarayotganini tushuna boshladilar. Shu yili Hadoop (katta ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun maxsus yaratilgan ochiq kodli platforma) ishlab chiqildi.

2011-yilga qadar katta ma'lumotlar tahlili faqat ilmiy-statistik tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan, ammo 2012-yilning boshiga kelib ma'lumotlar hajmining katta ko'lamda o'sishi sababli ularni tizimlashtirish va amalda qo'llash ehtiyoji tug'ildi.

2014-yildan boshlab, katta ma'lumotlarga amaliy muhandislik va IT mutaxassislar tayyorlaydigan dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari ye'tibor qaratishdi. Keyin Microsoft, IBM, Oracle, YEMC, undan keyin esa Google, Apple, Facebook va Amazon kabi yirik korporatsiyalar qo'shildi. Bugungi kunda katta ma'lumotlar yirik kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan turli sohalarda ishlatilmoqda.

Barcha yig'ilgan Big Data ma'lumotlari olingan manbalarga qarab tasniflanishi mumkin. AQShning Gartner kompaniyasi «katta ma'lumotlar»ga kiritilgan ma'lumotlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

**1) Operatsion ma'lumotlar.** Bu onlayn tranzaksiyalarni qayta ishlash jarayonida mavjud bo'lgan yoki onlayn tahliliy ma'lumotlar bazasidan olingan mijozlar, yetkazib

beruvchilar, hamkorlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar. Odatda tranzaksiya ma'lumotlari, aloqa ma'lumotlari va jismoniy shaxslar haqidagi umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha bunday ma'lumotlar qo'shimcha sensorlar va korxonalar jarayonlarini monitoring qilish yordamida muvaffaqiyatli to'planadi. Masalan, bank tizimiga ulangan kassa apparatlari, aqlli hisoblagichlar, ovozli aloqa, radiochastotani identifikatsiyalash va boshqalar;

**2) «Qorong'i» ma'lumotlar.** Tashkilotlar tomonidan ataylab saqlanmaydigan yoki to'planmagan, lekin biznesni yuritish yoki tarmoq xizmatlari bilan ishlash jarayonida tasodifiy (yo'lda) yaratilgan va Internet arxivlarida qoladigan ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlar ommaga ochiq va qisman tahlil qilish uchun tuzilgan, jumladan, elektron pochta xabarlari, elektron shartnomalar, hujjatlar, multimedia, tizim jurnallari va boshqalar;

**3) Tijorat ma'lumotlari.** Katta ma'lumotlar texnologiyasi imkoniyatlari paydo bo'lishidan oldin, turli sohalarda qimmatli tijorat ma'lumotlarining agregatorlari mavjud edi. Ushbu agregatorlar obuna ma'lumotlarining o'z kataloglariga to'liq kirishni ta'minlaydi. Biroq zamonaviy bozor munosabatlarining potensial investorlar va mijozlar uchun ma'lumotni ochishga yo'naltirilganligini hisobga olgan holda, tijorat manfaatlariga oid ko'plab ma'lumotlar raqamli muhitda ochiq joylashtiriladi;

**4) Rasmiy ma'lumotlar.** Davlat organlari tomonidan tarqatiladigan ma'lumotlar (bayonotlar, press-relizlar, ob-havo prognozlari, munitsipal rivojlanish rejalari to'g'risidagi ma'lumotlar), ochiq davlat registrlari, e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlar (shu jumladan, ularning loyihalari) eng ishonchli va eng ko'p tuzilgan hisoblanadi;

**5) Ijtimoiy tarmoqlar va xizmatlardan olingan ma'lumotlar.** Yirik ijtimoiy tarmoqlarning (Facebook, VKontakte, LinkedIn, Twitter, Instagram va boshqalar) funksiyalari, biznes, bozor munosabatlarida jismoniy shaxslarning ishtiroki, yangi va istiqbolli mahsulotlar, xizmatlar, kompaniyalar haqida yana bir ma'lumot manbasini yaratdi. Xabarlar, sharhlar, takliflar («repostlar») maqsadli mijozlarni, tijorat imkoniyatlarini, raqobatbardosh munosabatlarni, biznes va potensial hamkorlarni aniqlash hamda prognoz qilish uchun faol foydalaniladi.

Big Data tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlaydi va tizimlaydi, katta ma'lumotlardan ilg'or tahliliy vazifalarni bajarish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Ko'proq katta ma'lumotlar kengaytirilgan tahliliy vazifalar uchun qo'llaniladi, shu jumladan, sun'iy aql ham.

#### **Tahlil qilishning to'rtta asosiy usuli mavjud:**

**1. Tavsiflovchi tahlil (descriptive analytics)** – eng keng tarqalgan usul bo'lib, u «nima bo'ldi?» degan savolga javob beradi hamda real vaqtda kelayotgan va tarixiy ma'lumotlarni tahlil qiladi. Asosiy maqsad ma'lum bir sohadagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablari va uning muntazamligini aniqlash hamda ushbu ma'lumotlardan samarali foydalanish.

**2. Bashoratli tahlil (predictive analytics)** – mavjud ma'lumotlarga asoslanib, voqealarning eng ehtimoliy rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi. Buning uchun shunga o'xshash xususiyatlar to'plamiga ega bo'lgan har qanday ob'yekt yoki hodisalarga asoslangan tayyor shablonlardan foydalanadi.

**3. Retseptiv tahlil (prescriptive analytics)** – bashoratli tahlil bilan solishtirganda undan keyingi daraja. Big Data va zamonaviy texnologiyalar yordamida biznesdagi yoki boshqa faoliyatdagi muammoli nuqtalarni aniqlash va kelajakda qaysi yo‘l bilan ulardan qochish mumkinligini hisoblash mumkin.

**4. Tashxisli tahlil (diagnostic analytics)** – sodir bo‘lgan voqea sabablarini tahlil qilish uchun ma’lumotlardan foydalanadi. Bu hodisalar va harakatlar o‘rtasidagi anomaliyalar va tasodifiy aloqalarni aniqlashga yordam beradi.

Ma’lumotlar yangi boylik manbasiga aylangani sayin, katta ma’lumotlar yechimlari kompaniyalarning o‘shida tobora muhim rol o‘ynashi kutilmoqda. Kompaniyalar har doim ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lgan, ammo mazmunli ma’lumotlarni olish uchun ma’lumotlarga kirish va qayta ishlash imkoniyati cheklangan. «Katta ma’lumotlar» yechimlari kompaniyalarga ushbu qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi.

«Katta ma’lumotlar» tahlili kompaniyalarning asosini tashkil qilib, real vaqtda katta ma’lumotlar to‘plamini boshqarish, qayta ishlash, optimallashtirishga yordam beradi va qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, katta ma’lumotlar va biznes-tahlilning asosiy maqsadi kompaniyalarga o‘z mijozlarini yaxshiroq tushunishga yordam berish va marketing kampaniyalarini yaxshilashdir.

Ba’zi tarmoqlar katta ma’lumotlardan foydalanishda katta yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, boshqalari hali ham katta ma’lumotlarga yetarli e’tibor qaratishgani yo‘q. 2025 yilga kelib bank sohasidagi katta ma’lumotlar tahlil bozori 62,10 mlrd dollargacha o‘shishi mumkin. Bank sohasidagi katta ma’lumotlarning statistikasiga ko‘ra, jahon bank sektori infratuzilmasi allaqachon katta ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Masalan, 2013-yil holatiga ko‘ra, jahon moliyaviy sektorning 64 foizi allaqachon katta ma’lumotlarni o‘z infratuzilmasiga kiritgan bo‘lib, 2015-yilda bozor hajmi 12 mlrd dollarga yetgan. 2019-yilga kelib katta ma’lumotlarning bank operatsiyalari tahlili bozori 29,87 mlrd dollarni tashkil etdi. 2020-2025-yillar orasida bank sohasidagi katta ma’lumotlar tahlili bozori o‘rtacha yillik o‘shish sur’ati 12,97 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Katta ma’lumotlar bozori 2020-yilda 198,08 mlrd dollarga baholangan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 274,3 mlrd dollargacha o‘sadi va yaqin 5 yillikda yillik o‘shish sur’ati 13,2 foizni tashkil qiladi. 2027-yilga kelib 103 mlrd dollargacha o‘shishi va dasturiy ta’minot segmenti 45 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

BARC ma’lumotlariga ko‘ra, tashkilotlar «katta ma’lumotlar»dan foyda ko‘rmoqda. Xususan, strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati 69 foizga, operatsion jarayonlar ustidan ko‘proq nazoratni qo‘lga kiritish imkoniyati 54 foizga, iste’molchilarni yaxshiroq tushunish imkoniyati 52 foizga va xarajatlarni kamaytirish imkoniyati 47 foizga o‘sgan. Katta ma’lumotlar imkoniyatlaridan foydalanayotgan kompaniyalar daromadlarining o‘rtacha 8 foizga oshgani va xarajatlari 10 foizga kamayganini e’tirof etishgan.

Forbes 2025-yilga borib real vaqt rejimida 150 zettabayt yoki 150 trln gigabaytdan ortiq ma’lumotlar tahlil qilinishini bashorat qilgan.

Forbes ma'lumotlariga ko'ra, kompaniyalarning 95 foizdan ortig'i tuzilmagan ma'lumotlarning bir nechta to'plamini boshqarishda yordamga muhtoj, kompaniyalarning 40 foizi esa katta ma'lumotlar bilan shug'ullanish kerakligini aytadi. StrategyMRC ma'lumotlariga ko'ra, Hadoop va katta ma'lumotlar bozori hozirda 138,9 mlrd dollarga baholanmoqda va o'rtacha yillik o'sish sur'ati 28,5 foizni tashkil qilgan holda 2022-yilda 30 mlrd dollarga o'sishi kutilmoqda.

Wikibon ma'lumotlariga ko'ra, katta ma'lumotlar, tahliliy va amaliy ma'lumotlar bazasi yechimlari hajmi o'n yil ichida 6 foiz o'rtacha yillik o'sish sur'atida 2017-yildagi 6,4 mlrd dollardan 2027-yilga kelib 12 mlrd dollargacha o'sishi kutilmoqda. Hadoop, Kafka, Spark va TensorFlow kabi katta ma'lumotlar ekotizimidagi ochiq kodli platformalarga bo'lgan talab uning sun'iy intellekt, mashinani o'rganish, chuqur o'rganish yoki ma'lumotlar faniga bevosita murojaat qilishi tufayli kamayishi mumkin. Ammo Hadoop, NoSQL, xotira, oqim va boshqa ko'plab ma'lumotlar bazalari kabi ma'lumotlarni tahlil qilish platformalarining gibridd o'rnatilishi ma'lumotlar ko'lami va ma'lumotlar ishlab chiqarish yechimlari bozor ulushini oshiradi.

Bugungi kunda «Big Data» texnologiyalari bozorida AQShning Amazon.com, Inc., IBM, Microsoft, Oracle, Dell Technologies, Cisco Systems, Inc., Cloudera, Inc., Salesforce.com, Inc., Teradata, Tableau Software, Hewlett-Packard, Prolifics, Inc., Xplenty, Clairvoyant, Teradata, EquBot Inc., Dell Technologies, VMware, Inc. Databrix korporatsiyalari va SAS instituti, Germaniyaning SAP SE va Software AG, Yaponiyaning Fujitsu Limited va CMIC Co., Ltd., Hindistonning Infosys Limited, Xitoyning Huawei Technologies Co., Ltd. va Buyuk Britaniyaning Deloitte Touche Tohmatsu Limited kompaniyalari yetakchilik qilmoqda.

2021-yilda mamlakatlarning global yirik ma'lumotlar va biznes-tahlil bozoridagi ulushi: AQSh – 51%; Yaponiya – 5,7%; Xitoy – 5,5% Buyuk Britaniya – 5,1%; Germaniya – 4,4%; boshqalar – 28,3%.

«Katta ma'lumotlar»ning kelajagi tahlilchilarni talab qiladi. Katta ma'lumotlar hajmi o'sishda davom etar ekan, unga sho'ng'ish va amaliy tushunchalarni olish uchun o'qitilgan ma'lumotlar tahlilchilariga ehtiyoj ortib bormoqda. «Katta ma'lumotlar» tahlili moliya, hukumat va sog'liqni saqlash kabi sohalarda o'zgarishlar yaratish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi, shuningdek, firibgarlikning oldini olish, tabiiy ofat yuz berganda resurslarni taqsimlash yoki sog'liqni saqlashni yaxshilash orqali odamlar hayotini o'zgartirishga yordam beradi.

#### **1.4. O'zbekistonda "Big data" texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari va muammolari.**

O'zbekiston sug'urta bozorida 2023 yilda sug'urta tashkilotlari oldidagi asosiy vazifalardan biri aholining elektron siyosatga ommaviy o'tishini ta'minlash, Face ID mijozlarga xizmat ko'rsatishning biometrik axborot tizimini joriy etish, sug'urta da'volarini onlayn tarzda taqdim etishning interaktiv tizimini ishlab chiqish, shuningdek, "mahallabay" tizimi doirasida O'zbekiston mintaqalarida shahar va qishloq aholisini sug'urta himoyasi bilan ta'minlash, shu jumladan, raqamli

platformalardan foydalanish bo'yicha ishlarni davom ettirish va tubdan kuengaytirishdan iborat edi.

Hayot sug'urtasi bozorini internetlashtirishni rivojlantirishga yordam beruvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- internet foydalanuvchilari va internet-tijorat operatsiyalarini amalga oshiruvchilar sonining ko'payishi;

- sug'urtalovchi va sug'urtalangan shaxsning global tamoq asosida munosabatlarini nazorat qilish normalarining yuzaga kelishi;

- sug'urta mahsulotlarini onlayn realizasiya qilish va sug'urta da'volarini masofaviy hal qilishning yuqori rentabelligi;

- sug'urtalashda internet sotuvi konsepsiyasini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta xizmatlarini individuallashtirish, ularni taklif qilish, ularni taklif qilish va zararni qoplashga qaratilgan Big Data texnologiyalaridan kengroq foydalanish.

Internet sug'urtaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- sug'urta firibgarligining yuqori darajasi;

- internet orqali sug'urta operatsiyalarining kiber jinoyatlarga imkon yaratib berishi;

- mamlakatimizning ayrim hududlarida yuqori sifatli tezlik bilan ishlovchi internet tizimining etishmasligi;

- sug'urta institutlari va sug'urta madaniyatiga bo'lgan ishonchning past darajasi.

Sug'urta kompaniyasi veb-saytidagi internet orqali sug'urta qildiruvchi sug'urta polisini sotib olish bo'yicha quyidagi imkoniyatlardan foydalanishi mumkin:

- muayyan sug'urta mahsulotini (sug'urta xizmatini) tanlash;

- sug'urta qoidalar bilan tanishish va ushbu qoidalar agar ma'qul bo'lsa sug'urta shartnomasini tuzishga rozi ekanligini tasdiqlash;

- kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish;

- sug'urta uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

- sug'urta shartnomasini tuzish va polis olish uchun kerakli hujjatlarni taqdim etish;

- sug'urta xizmati narxini hisoblash va to'lash;

- sug'urta shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish;

- sug'urta hodisasi yuz berganda bu to'g'rida ariza berish;

- sug'urta qoplamasini olish.

Mamlakatimizda sug'urta sohasini raqamlashtirish endgina shakllanib borayotgan jarayondir.

O'zbekiston sug'urta tizimi rivojlangan davlatlardan kam bo'lmagan darajada muvaffaqiyatli ishlashga qodir, sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini faol qo'llash bo'yicha hukumat tomonidan qator imkoniyatlar yaratilmoqda, buning samarasi o'laroq kelajakda biznesning kaliti uning kuchli axborot ta'minoti bo'ladi.

O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishi tobora ko'proq sug'urta texnologiyasiga ta'sir etuvchi, lekin uning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmaydigan raqamli iqtisodiyotning yangi turlarini joriy etishga bog'liq. Sug'urta faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida:



- sugʻurta faoliyati samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- oʻzaro va tijorat sugʻurtasining yaqinlashuvi (P2P sugʻurtasi) amalga oshiriladi;
- sugʻurta munosabatlarining ijtimoiylashuvi amalga oshiriladi;
- yangi sugʻurta xizmatlari va mahsulotlari paydo boʻladi;
- sugʻurta sohasida mehnat bozori oʻzgaradi (baʼzi sugʻurta agentlari, past va oʻrta darajadagi mutaxassislarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va robotlari bilan almashtiriladi);
- raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sugʻurta xizmatlarini tanlashda sugʻurtalovchilarning xatti-harakatlari modellarining oʻzgarishi sugʻurta kompaniyalari raqobatini birinchi oʻringa xaridorni tanlash uchun emas, balki foydalanilayotgan raqamli texnologiyada oʻz xizmatlarini tavsiya etish darajasi uchun foydali boʻladi;
- sugʻurtalovchilar tomonidan biznes-jarayonlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish sugʻurtalanganlar bilan muloqot qilish, sugʻurta shartnomasini saqlash, zararlarni qoplash sohalarida sugʻurta dasturlari raqobatbardoshligining raqamli omillari paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Sugʻurta kompaniyalariga katta maʼlumotlar bazasidan foydalanish nima uchun muhim hisoblanadi?
2. Sugʻurta sohasida katta maʼlumotlarni qoʻllash qanday yoʻnalishlarda amalga oshirilishi mumkin?
3. Katta maʼlumotlardan foydalanish bilan bogʻliq qanday muammolar mavjud?
4. “Big data” atamasini dastlab kim tomonidan qoʻllangan va u ushbu tushuncha toʻgʻrisida nimalar degan?
5. Internet sugʻurtaning rivojlanishiga toʻsquinlik qiluvchi omillar nimalardan iborat?

## **2-mavzu: Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sugʻurta xizmatlari koʻrsatishning rivojlanish tendensiyalari. (4 soat)**

### **Reja:**

1. Onlayn xizmat va onlayn sugʻurta xizmatlari. Sugʻurta xizmatlarini taqdim etishni osonlashtirish va tannarxini pasaytirishda onlayn xizmatning oʻrni.
2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sugʻurta xizmatlari.

### **✎ Tayanch iboralar:**

*Onlayn sugʻurta polisi, onlayn sugʻurta shartnomasi, onlayn sugʻurta texnologiyalari.*

### **2.1. Onlayn xizmat va onlayn sugʻurta xizmatlari. Sugʻurta xizmatlarini taqdim etishni osonlashtirish va tannarxini pasaytirishda onlayn xizmatning oʻrni.**

Axborot texnologiyalariga oʻtish jarayoni menejment sifatining oʻzgarishi bilan

birga kechadigan jarayon bo'lib, bunda menejerlarning tahliliy ishi asosiy o'rinni egallaydi, ular uchun yangi g'oyalar va ustuvorliklarni shakllantiradi, axborotni kompaniyaning asosiy va haqiqatan ham qulay manbalardan biriga aylantiradi, raqamlashtirilgan tizimni yanada rivojlantirish esa axborot texnologiyalari strategiyasining muhim elementi bo'lib xizmat qiladi. Biroq axborot texnologiyalarini qo'llash yetarlicha samarali yo'lga qo'yilgan mehnat sharoitida ko'proq iqtisodiy samara keltiradi. Chunki ma'lum qoidalariga bo'ysunadigan barqaror jarayonlarga raqamlashtiriladi. Agar har bir ish holati o'ziga xos bo'lsa, istisno va tuzatishlar kompaniya faoliyatining tartib-qoidalariga xalaqit bersa, u holda axborot texnologiyalarini joriy etish pul va vaqtni behuda sarflashdangina iborat bo'lib qoladi.

Sug'urta kompaniyalari uchun bu, avvalambor sug'urta bilan bog'liq barcha hujjatlarni yetarlicha uzoq muddat foydalanishni nazarda tutgan holda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi kerakligini anglatadi. Masalan, sug'urtalanish uchun ariza, sug'urta shartnomasi, sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma, shuningdek balansning foyda va zararlar hisobvarag'i va boshqalar. Faoliyatning barcha tartib-qoidalari puxta o'ylangan va ko'rsatmalar shaklida hujjatlashtirilgan bo'lishi kerak. Xususan, kim tomonidan, qanday qilib, qachon va qanday sharoitlarda kompaniya siyosatining ishlab chiqilishi, brokerlar bilan hisob-kitoblarning qanday amalga oshirilishi, to'lovlarning qanday va kim tomonidan amalga oshirishi, zararni kim va qanday baholashi va boshqalar aniqlanishi kerak. Barcha hujjatlarning harakatlanish yo'llari, shartlari va agar ular moliyaviy xarakterga ega hujjatlar bo'lsa, unda pul harakati ko'rsatmalarda bayon qilinishi kerak (yoki diagrammalarda tasvirlangan bo'lsa undan ham yaxshi). Hujjat aylanishining bunday sxemalari har bir hujjatning hayotiy siklini to'liq kuzatib borish va kompaniyadagi hujjatlar aylanishini tahlil qilish, so'ngra uni takomillashtirish – yangi texnologik yechimlar asosida tezlashtirish, soddalashtirish va kerak bo'lganda to'ldirish yoki rivojlantirishga imkon beradi. Agar bu ish amalga oshirilmasa, sug'urta kompaniyasining samarali avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini ishlab chiqish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi.

Sug'urtalashda axborot tizimlarini raqamlashtirishga qo'yiladigan asosiy talablar biznesning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi va ular quyidagilardan iborat: tizimning barcha modullari uchun yagona axborot maydoniga ega bo'lish; keng ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun yetarli darajadagi tezkorlik; tizimga ma'lumotlarni o'rnatishdagi qulaylik va tezkorlik (qonunchilikning o'zgartirishi kabi vaziyatlarda); ma'lumotlarni saqlashning yuqori ishonchliligi.

Ushbu sohadagi firibgarlikning oldini olish uchun sug'urta kompaniyalari to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadigan barcha kompaniyalar uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratish kerak. Sug'urta kompaniyasi faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha universal axborot tizimiga bo'lgan umumiy talabdan kelib chiqib, eng muhim mezon sifatida quyidagilar taklif etiladi: Faoliyatning samaradorligi. Mijozlar sonining tez o'sib borishi, ularni jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar sharoitida kompaniya tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatning tezligi va qulayligi

muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanadi.

Kompaniyaning axborot tizimi sug'urta mahsulotini tanlashda, sug'urta shartnomasini tuzishda, kompaniyaga qay tartibda murojaat etish, ayniqsa sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni undirish bo'yicha eng to'liq xizmatni taqdim etishi kerak. Tizim mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilari: filiallar tarmog'i, brokerlar va sug'urta agentlari uchun axborotni ta'minlashi kerak.

Shunday qilib, tizimga qo'yilayotgan eng muhim talab – bu minimal xarajatlar bilan masofadan turib kirish imkoniyatini ta'minlashdir. Barcha tarmoq tugunlarining ishlashi qo'shimcha texnik xarajatlarsiz amalga oshirilishi, ya'ni tizimning masofadan boshqarish bilan ta'minlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Moslashuvchanlik, yangi mahsulotlarni tezda yaratish va sotish qobiliyati. Sug'urta bozorida o'sib borayotgan raqobat sharoitida mijozlar ehtiyojlarini tezda ilg'aydigan, talab va istaklarni hisobga olgan holda yangi mahsulotlarni o'z vaqtida yaratadigan va sotuvni turli shakllarda tashkil etadigan kompaniyalar g'olib bo'ladi.

Hozirgi sharoitda sug'urta bozoridagi yetakchi kompaniyalar, sug'urta agentlari o'z kompaniyasining yangi takliflari haqida bilmasligi va ofis xodimlari mijozga yangi mahsulotni sotib olishning afzalliklarini tushuntirib bera olmagan vaziyatlarga ko'na olmaydi. Axborot tizimi sug'urta mahsulotlarini shakllantirishning to'liq siklini ta'minlashi kerak: tahlil qilish va hisoblashdan tortib barcha zarur hisobot hujjatlarini tayyorlashgacha va ushbu mahsulotni kompaniyaning buxgalteriya tizimiga qo'shish jarayonlari ham inobatga olinishi lozim.

O'lchovlilik. Barcha kompaniyalar birdaniga axborot tizimiga ko'p pul sarflashga tayyor emaslar. Ushbu qoidaning ravshanligi xuddi shu muammoning yana bir jihati noaniqligini ko'rsatadi: qilinayotgan sarf-xarajatlarning zoye ketmasligi uchun bugungi kunda sotib olinayotgan tizim bir yil ichida, ikki yoki besh yilda kompaniyaning ortib borayotgan biznes talablariga va rivojlanish strategiyasiga javob beradigan kafolatlarni berishi lozim. Shu bilan birga, mijozlar sonining muntazam ortib borayotganini ham hisobga olish zarur, mijozlar sonining ko'payishi butun axborot tizimini to'liq almashtirishni yoki sezilarli darajada qayta tuzishni talab qilishi kerak emas.

Tizimning amal qilish ko'lami kengayishi, ya'ni imkoniyatlarning o'sishini ta'minlash qobiliyati bir nechta jihatlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, bu miqdor jihatdan kengayish. Mijozlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, sug'urtaning turlari ham ortib boradi. Mintaqaviy kengayish ham juda muhim: tizim kompaniyaning yangi tashkil etilgan nuqtalarida (filiallarida) oddiy va standart ishlashi kerak. Va nihoyat, funksional kengayish, ya'ni yangi sug'urta mahsulotlarini qulay tarzda yaratish va ulardan foydalanish qobiliyati mavjud bo'lishi zarur.

Moliyaviy boshqaruv vositalarining mavjudligi. An'anaviy ravishda moliyaviy menejment, boshqaruv hisobi, tahliliy va byudjet tuzish bilan bog'liq bo'lgan tizim



tarkibiy qismlariga qiziqish ortib bormoqda. Har bir ikkinchi potensial mijoz ushbu bloklarni axborot tizimining eng muhim tarkibiy qismi, deb hisoblaydi. Bugungi kunda aksariyat kompaniyalar tuzilmaviy shaklda ishlaydi va bir emas, balki bir nechta sug'urta mahsulotlarini sotadilar. Shu sababli, kompaniyalar uchun kim va qanday pul topishi, uni nimaga va qancha miqdorda sarflashini aniqlash o'ta muhimdir. Mahsulotlarning qay darajada samaradorlikka olib kelishi ham bir xil ahamiyatga ega.

Xalqaro hisob standartlariga muvofiqligi. Sug'urta kompaniyasining axborot tizimi kamida ikkita omilni hisobga olishi kerak – xalqaro standartlarga muvofiqligi va doimiy o'zgarib turadigan mamlakat standartlariga muvofiqligi. Aktuar hisob-kitoblarning alohida bloklarini yaratish imkoniyati. Kompaniyaning ishonchliligi uning tahlil markazining sifati, ya'ni samarali vositalardan foydalangan holda tahlil va aktuar hisob-kitoblar bilan shug'ullanadigan odamlar tomonidan aniqlanadi. Har bir kompaniyaning o'ziga xos noyob tahlil jarayonlari mavjud. Shuning uchun, aktuar hisob-kitoblarni ishlab chiqish uchun o'ziga xos algoritmlarni birlashtirish, shuningdek, ushbu hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va tuzish axborot tizimining muhim talabidir.

Ochiqlik. Tizimning ochiqligi ilgari ishlab chiqilgan bir qator talablarga javob beradi. Biroq maxsus modullar va bloklarni masshtablash va birlashtirish imkoniyatlaridan tashqari tizimning ochiqligi uni doimo o'zgaruvchan biznes talablariga moslashtirishga imkon beradi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini rejalashtirish va boshqarishda axborot texnologiyalarini joriy etish ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, quyidagilar haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish lozim bo'ladi: iqtisodiyotning mintaqalar, kompaniyalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlari; moliyaviy, mehnat va moddiy resurslar. Sug'urta faoliyatini raqamlashtirish zarurligini belgilovchi omillar quyidagilar: ma'lumotlar hajmi; aniqlik va ishonchlikka qo'yiladigan yuqori talablar; mijozlar va sug'urta kompaniyasining moliyaviy holatini samarali tahlil qilish zarurati.

Sug'urta faoliyatidagi taqsimlangan tizimlar mutaxassis tomonidan yaratiladi va taqsimlangan hisoblash tizimlaridan foydalanish qo'llaniladigan muammolarning mohiyatini va ularni hal qilishni tashkil qilishni oldindan belgilab qo'yadi. Sug'urta kompaniyasining xodimlari, bo'limlari, filiallari, alohida iste'molchilar (agentlar, brokerlar) ma'lum bir hududga tarqalib ketadi. Ular hal qiladigan vazifalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi bois ularning hisoblash imkoniyatlari yagona tizimga birlashtirilishi kerak. Bunday holda asosiy yechim kompyuter tarmoqlaridan (mahalliy, ochiq, global) foydalanishdan iborat bo'ladi. Taqsimlangan tizimlarning afzalliklari: yuqori ishonchlik; zaruriy ma'lumotlarning ko'pligi.

Ishonchlik – bu qurilmaning ayrim elementlari ishlamay qolganda va ma'lumotlar to'liq bo'lmagan holda tizimning o'z funksiyalarini bajarishi hisoblanadi. Tizimning ishonchliligini yanada oshirish uchun ma'lumotlarning yetarli darajada ko'p bo'lishi

asos bo'ladi. Sug'urta kompaniyasining filiallari uchun mazkur tizim quyidagilarni ta'minlaydi: axborot, dasturiy va texnik resurslardan birgalikda foydalanish imkoniyati; boshqa filiallar bilan aloqa vositalarini ta'minlash; ishni butun tizimda taqsimlashdagi qulaylik. Axborot tizimidagi alohida qismlarning o'zaro ta'sirini samarali tashkil qilish jarayonida ham ayrim muammolarga duch kelinadi. Jumladan, dasturiy ta'minotdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar quyidagilar: operatsion tizim, ya'ni dasturlash tillari va amaliy dasturlarni tanlash; sug'urta kompaniyasi xodimlarini taqsimlangan muhitda ishlashga o'rgatish; foydalanuvchilarning funksiyalarini aniqlash va chegaralash. Kompyuterlarni tarmoqqa ulashda yuzaga keladigan muammolar: xabarlarining yo'qotilishidan himoyalash vositalari talab etiladi (tarmoqning haddan tashqari yuklanishi sababli); o'tkazish qobiliyatini oshirish, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha maxsus choralar talab qilinadi; tijorat sirlarini saqlashni ta'minlash; bir qator foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida ishlashga imkon beradigan tizimdagi muammolarni hal qilish mushkul hisoblanadi.

Kompyuter tarmoqlari va masofadan turib foydalanish quyidagi sabablarga ko'ra ish samaradorligining oshishi va kompaniya foydasining ko'payishiga olib keladi: axborotni qayta ishlash vaqtini qisqartirish; tahlil qilish imkoniyatlarini oshirish. Buning natijasida sug'urta xizmatlarining raqobatbardoshligi oshishiga va bozorda kompaniyaning o'z mavqei shakllanishiga erishiladi. Kompyuter tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib faoliyat yuritadigan sug'urta kompaniyasi uchun quyidagi yangi imkoniyatlar yaratiladi: aloqa yaxshilanadi, ya'ni kompaniya xodimlari va uning mijozlari o'rtasida axborot almashinuvi va o'zaro aloqalar yaxshilanadi; turli idoralarda joylashgan xodimlar umumiy texnologik bazaga ega bo'lgan yagona texnologik platformada ishlaydi; yuqori darajadagi axborot ishonchliligi va samaradorligi tufayli xodimlar asosli qarorlar qabul qiladi; tarmoq va masofadan turib kirish imkoniyati sug'urta kompaniyasiga boshqa turdagi ma'lumot almashish vositalari, masalan, telefon yoki oddiy pochta aloqalarida ishlash ehtiyojini kamaytiradi.

Shunday qilib, xulosalarning asosliliigi, natijalarning aniqligi, ishonchliligi oshishiga emas, balki qaror qabul qilish uchun vaqt, mehnat va xarajatlarning kamayishiga erishiladi, shu bilan birga, sug'urta kompaniyalarida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi. Tarmoq sug'urta kompaniyasiga o'z filiallari joylashgan joyni tanlash erkinligini beradi, ya'ni kompaniyalarga nafaqat filiallarni, balki sug'urta operatsiyalarini bajarish uchun eng samarali bo'lgan joyda sug'urtalovchilar va mutaxassislarining ish joylarini ham topishga imkon beradi. Axborot tizimi tomonidan taqdim etilgan sug'urta kompaniyasining axborot maydoni uning tarkibiy qismlariga bo'linadi. Sug'urtaning markaziy idorasi firma yoki bosh tashkilot yuqori samarali ko'priklar yoki routerlar orqali bir-biriga ulangan, bir yoki bir nechta yuqori tezlikda ishlaydigan mahalliy (lokal) tarmoqlarga ega. Lokal tarmoqni butun kompaniyaning

axborot markazi, shu jumladan hisoblash resurslari sifatida baholash mumkin: fayl serverlari; ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va boshqalar. Lokal tarmoqlarda joylashgan mahalliy va masofali tarmoq qurilmalari markazlashgan nazorat qilish va boshqarish tizimini o'z ichiga oladi. Sug'urta kompaniyasining hududiy ofislari (filiallari) ishonchli va yetarlicha yuqori tezlikdagi aloqani kafolatlaydigan o'z mahalliy tarmoqlariga ega keng ko'lamli tashkilotlardir. Ayrim filiallar uchun markaziy ofisga doimiy ravishda yuqori tezlikda ulanish lozim bo'ladi, bu maxsus ajratilgan aloqa kanallari tomonidan ta'minlanadi.

Sug'urta kompaniyasining filiallarida odatda bir nechta shaxsiy kompyuterlarni o'z ichiga olgan kichik mahalliy tarmoq mavjud. Hududiy ofis bilan aloqa oldindan belgilangan jadval asosida ma'lum soatlarda amalga oshiriladi, ammo rejadan tashqari shoshilinch kirish imkoniyati ham mavjud. Sug'urta kompaniyasining vakolatxonalari yoki agentliklari ko'pincha bir yoki bir nechta kompyuter bilan ta'minlanadi. Filiallar bilan aloqa qilish zarur bo'lgan hollarda yuzaga keladi va kun davomida ta'minlanadi. Masofaviy tarmoq foydalanuvchilari – bu o'z vazifasi tufayli ish kunini ofisdan tashqarida (masalan, mijozlar bilan) o'tkazadigan xodimlar: inspektorlar, sug'urta kompaniyalari agentlari, nazoratchilar, shuningdek, ish safari yoki ta'tilda bo'lgan menejerlar mobil ilovalardan foydalanadilar.

Sug'urta tizimi uchun axborot ta'minotini tashkil etishning asosiy xususiyati shundan iboratki, kompaniyaning barcha shartnomalari to'g'risida eng uzoq muddatga to'liq ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish zarur. Buning sababi shundaki, mijoz bilan yangi shartnoma tuzishda uning avvalgi sug'urtasi (to'lovlarning mavjudligi va xususiyati) to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish va ushbu holatlarga oid barcha hujjatlarni ko'rib chiqishni ta'minlash kerak. Bunday ma'lumotlar ma'lumotlar bazasida saqlanishi, doimiy ravishda yangilanib turishi va so'rovdan so'ng darhol olinishi kerak. Masalan, sug'urta mukofoti stavkasi yoki tarifini hisoblashda quyidagilarga ahamiyat qaratish zarur: ma'lumotlar bazasidan statistikani olib tashlash; sug'urta shartnomalari bo'yicha hisob-kitob harakatlarini uzoq o'tgan davrda amalga oshirish.

Har bir shartnoma shu tarzda rasmiylashtiriladi, bu esa markaziy ofis ma'lumotlar bazasining to'liqligi talabini nazarda tutadi. Sug'urta kompaniyasining qolgan bo'limlarida (hududiy filiallar, idoralar) umumiy ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishning hojati yo'q, chunki har bir bo'linmada sug'urta qildiruvchilarning ma'lumotlar bazasi mavjud. Kompaniyaning umumiy bazasidan ma'lumot so'rash zarurati quyidagi hollarda yuzaga keladi: sug'urta qildiruvchi ko'chib o'tganda; sug'urta qildiruvchi yirik tashkilot bo'lsa va uning bo'linmalari bir nechta mintaqada joylashgan bo'lsa.

Ma'lumotlar bazasining uchta darajasi mavjud: 1) markaziy ofis – butun kompaniya to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi; 2) mintaqaviy filial – faqat ushbu mintaqada uchun ma'lumotlarni o'z ichiga oladi; 3) filiallar – u qamrab olgan hududdagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Dastlab sug'urta bo'yicha

to'g'ridan-to'g'ri eng katta ishlar olib boriladigan sug'urta kompaniyasining filiali darajasida ma'lumotlar paydo bo'ladi. Ushbu ma'lumot kun davomida yoki boshqa davrda sug'urta kompaniyasi filiallari ma'lumotlar bazasida to'planadi, so'ngra avvalgi bazaga qo'shiladi. Muayyan vaqtda sug'urta kompaniyasining mintaqaviy vakolatxonasi kompyuterlari bilan avtomatik ulanish sodir bo'ladi va ma'lumotlar bazasi takrorlanadi. Ikkita ma'lumotlar bazasidan bittasi asosiy sifatida tanlangan bo'ladi va u eng dolzarb ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ikkinchisi esa unga bo'ysunadi va asosiy bo'lib tayinlangan bazadan nusxa oladi. Shunday qilib, har ikki ma'lumotlar bazasi bir vaqtning o'zida kuzatish, ma'lumotlarni yangilash va zarur hollarda nizolarni hal qilish imkoni bo'ladi. Bu ikkita katta ma'lumotlar bazasini qisqa davrda bir xil holatga keltirishga imkon beradigan standart va juda samarali jarayon hisoblanadi, chunki aloqa liniyalari orqali faqat sodir bo'lgan o'zgarishlar uzatiladi. Shunday qilib, hududiy filial barcha o'ziga bo'ysunuvchi filiallardan ma'lumotlarni o'z ma'lumotlar bazasida to'playdi. Natijada mintaqaviy ma'lumotlar bazasi sug'urta xodimining doimiy ishtirokisiz avtomatik ravishda to'ldiriladi va butun mintaqadagi to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, jarayonda yuzaga keladigan ma'lumotlar sug'urta kompaniyasi xodimlari tomonidan interaktiv ravishda kiritilishi mumkin.

Sug'urta kompaniyasi ma'lumotlar bazasi hamda axborot tizimi foydalanuvchilari ob'ektlari tashuvchilar yoki axborot manbalari hisoblanadi, biroq ular alohida ahamiyatga ega emas. Axborotning qiymati uni sug'urta kompaniyasining har qanday ehtiyojlari uchun olish imkoniyatiga bog'liq. Kompyuter tarmog'ining butun majmuasini ikkita asosiy tarkibiy qismga bo'lish mumkin: sug'urta kompaniyasining aniq tarkibiy bo'linmalari, filiallari tarmoqlari va ular orasidagi aloqani ta'minlaydigan tarmoqlar. Sug'urta kompaniyasining har bir bo'linmasi uchun uning ko'lamiga mos keladigan tarmoq yaratilib, ichki ma'lumotlardan foydalanishning tegishli samaradorligini ta'minlash talab etiladi. Bunday tarmoqlar yetarlicha tezkor bo'lishi kerak, chunki uzatilgan ichki ma'lumotlar hajmi katta bo'lishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining alohida filiallari o'rtasidagi aloqa sezilarli darajada kamroq ma'lumot uzatilishini ta'minlaydi.

Tarmoqda aniq ma'lumot olish, shuningdek, turli darajadagi bo'limlarning ma'lumotlar bazalariga moslashtirish va o'zgarishlarni uzatish bo'yicha so'rovlar yuzaga keladi. Markaziy ofisning tarmoq kompleksi axborot uzatish tezligi jihatidan juda talabchan hisoblanadi. Markaziy ofis odatda yo'riqnoma yordamida bir-biriga ulangan bir yoki bir nechta cheklangan mahalliy tarmoqqa ega. Sug'urta kompaniyalarida ishni avtomatlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va asosan yirik sug'urta kompaniyalarida amalga oshiriladi. Avvalo, ish boshqaruvning quyi darajasida – mutaxassislarning ish joylarida avtomatlashtiriladi. Menejmentning yuqori va o'rta darajalari (filiallar rahbarlari, sug'urta kompaniyasi) amalda raqamlashtirilmagan

(sug'urta kompaniyasining buxgalteriya faoliyati bundan mustasno) bo'ladi. Keyinchalik avtomatlashtirish barcha sug'urta turlari va boshqaruv darajalari uchun sug'urta tahlilini ishlab chiqishni taqozo etadi. Yangi texnologiya axborot jarayonlarini integratsiyalashni (birlashtirishni) talab qiladi, jumladan: sug'urta biznesida axborot tizimini rivojlantirish uchun ishlab chiqaruvchi dasturiy vositalarni jalb qilish; bir xil va bir jinsli bo'lmagan kompyuter tarmoqlarida mijoz-server arxitekturasidan foydalanishni yo'lga qo'yish; masofadan kirishni ta'minlash uchun bulutli texnologiyalardan foydalanish; zamonaviy sug'urta biznesini real vaqt rejimida amalga oshirish (real vaqtni ma'lumotlar bazasi serverining arxitekturasiga asoslangan foydalanadigan tizimlar ta'minlaydi); SQL so'rovlar tilida mijoz va server bilan o'zaro aloqada bo'lgan mijoz-server rejimini ta'minlash. Sug'urta kompaniyasi filiallarining ish joylari uchun markaziy ofisning serveri bilan aloqani ta'minlash talab qilinadi.

## **2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sug'urta xizmatlari.**

Yevropa davlatlarida sug'urta kompaniyalarining axborot texnologiyalarini joriy etish uchun amalga oshiradigan xarajatlari sarflangan mablag'larning 1/5 qismiga to'g'ri keladi. Ushbu mablag'larning uchdan bir qismi texnik vositalarga, uchdan biri dasturiy ta'minotga, uchdan biri esa xodimlarni tayyorlashga sarflanadi. Biroq O'zbekiston sug'urta bozori uchun bunday ko'rsatkichlar hali xarakterli emas, ammo rivojlanish istiqbollari sari ildam qadamlar qo'yilgan. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining ayrim yo'nalishlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar soni asta-sekin kengayib bormoqda, ya'ni sug'urta faoliyatini takomillashtirish, sug'urta zaxiralarini joylashtirish hajmi va tartibi, qayta sug'urta talablari va standartlari, buxgalteriya hisobini yuritish, sug'urta hisobotlari va boshqalar. Bu mamlakat sug'urta bozorida faoliyat texnologiyalarini bosqichma-bosqich birlashtirish uchun dastlabki sharoitlarni yaratadi. Huquqiy talablar va bozor konyunkturalari ta'siri ostida zamonaviy axborot tizimi mavjud bo'lgan kuchli sug'urta kompaniyalari guruhi shakllandi.

O'zbekiston sug'urta bozori va Yevropa mamlakatlari sug'urta bozori o'rtasidagi farqlarni qisqartirgan holda sug'urta bozorining o'zi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Bu yuqori malakali ishlab chiqaruvchilarning nisbatan kichik guruhlari tomonidan sug'urta faoliyatining yaxlit tizimlarini tezda yaratish va amalga oshirishga imkon beradi. Axborot tizimi avtomatlashtirilgan axborot muhitini shakllantirish orqali sug'urta kompaniyalarining ish uslubini o'zgartirmoqda. Axborotni qabul qilish, kerakli interaktiv kanalni tanlash imkoniyatlarining mavjudligi foydalanuvchining jarayonni o'zi boshqarishini ta'minlamoqda. Aloqa vositalarining rivojlanishi dunyoning istalgan nuqtasida sug'urta jarayonining har qanday abonentini bilan ma'lumotlarni uzatish va video tasvirlar orqali aloqa qilish imkoniyatini yaratadi, elektron sug'urtani joriy etish istiqbollarini amalga oshiradi. Elektron sug'urta nuqtai nazaridan sug'urtani amalga oshirish shartlari ham o'zgarib boradi.

Umuman olganda, O'zbekiston sug'urta tizimi rivojlangan davlatlardan kam bo'lmagan darajada muvaffaqiyatli ishlashga qodir, sohada zamonaviy axborot

texnologiyalarini faol qo'lash bo'yicha hukumat tomonidan qator imkoniyatlar yaratilmoqda, buning samarasi o'laroq kelajakda biznesning kaliti uning kuchli axborot ta'minoti bo'ladi.

Sug'urta kompaniyalari va banklar uchun dasturiy ta'minot yetkazib beruvchi Avstriyaning mashhur FirstInEx Internet Services AG kompaniyasining Connect Insurance axborot tizimi mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Bu tizim sug'urta kompaniyasiga —timeto market – yangi sug'urta mahsuloti to'g'risidagi g'oyani paydo bo'lishidan boshlab, to uni bozorga olib chiqishgacha bo'lgan tamoyilli jarayonlar bo'yicha va kompaniyadagi mavjud AT tuzilishini o'zgartirmasdan turib mahsulotlar sotish tizimini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

AQSHda barcha moliyaviy internet-xizmatlarda bo'lgani kabi internet-sug'urta bozori ham birinchi bo'lib yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda internetda o'z vakolatxonalarini ochgan ko'plab amerika sug'urta kompaniyalari sug'urta polislarini sotib olish va xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlarni ko'rsatadi. Mijoz internetda onlayn maslahat, yoritib berilgan xizmatlar turidan kelib chiqqan holda sug'urta mahsulotlarini tanlashi mumkin. Shundan so'ng sug'urta mukofotlarini hisoblash va sug'urta shartnomasini tuzish uchun veb-shakllarni to'ldirish zarur bo'ladi. Amerika sug'urta bozorida sug'urta portallari o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, odatda tarmoq ma'lumot resurslari yirik sug'urta kompaniyalari axborotlarini taqdim etadi. Tashrif buyuruvchilar internet-portal saytlaridan sug'urta kompaniyasining individual sayti kabi bevosita internet orqali sug'urta polislarini sotib olishlari mumkin.

AQSHda yuzlab sug'urta portallari mavjud bo'lib, har birida 20-40 sug'urta kompaniyalari ishtirok etadi. Har oyda sug'urta portallariga 150-200 milliondan ortiq 32 raexpert.ru ma'lumotlari 83 tashriflar bo'lib, ma'lumotlar bazasida 700 mln.dan ortiq foydalanuvchilar bor. Shu bilan birga individual tarzda internet-sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalari ham samarali faoliyat olib boradi. Sug'urta kompaniyalari BI mahsulotidan foydalanishlari bilan sug'urta biznesini yuritishda manfaatli mijozlarni saralab olish, o'zaro samarali hamkorlikning barcha bo'g'inlarida qanday mijozlarning ustuvorligi, mijozlarni segmentlashtirish, yo'qotishlarni tahlil qilish, mos kelishlikni tahlil qilish, maqsadli marketingdan foydalanish, kompaniya faoliyatini tahlil qilish kabi bir qator imkoniyatlarga ega bo'ladi

O'zbekiston sug'urta axborot tizimlari bozorida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan bank tizimiga integrallashgan axborot tizimlarini muvaffaqiyatli joriy qilgan —Fido-Biznes MCHJ va Rossiyaning —1C kompaniyasi mahsulotlari muvaffaqiyatlarga erishib bormoqda. Sug'urta kompaniyalarining internet-sug'urta xizmatini yo'lga qo'yishlari dastlabki bosqichda bo'lib, internet-portaldan faqat axborot-reklama sifatida foydalanilmoqda. Respublikada sug'urta sohasida barcha faoliyatni qamrab

oluvchi AKT ishlanmalari kam va ular asosan kichik kompaniyalarda joriy qilingan bo'lib, respublikadagi mavjud mahalliy firmalar tomonidan ishlab chiqilgan sug'urta AKT tizimlari yirik kompaniyalarning talablarini qondira olmaydi. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari faoliyatiga joriy qilingan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sug'urta faoliyatini to'la qamrab olish darajasida emas, balki faoliyatning ma'lum bir funksiyalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Masalan, —Kapital Sug'urta AJ faoliyatiga qo'llanilayotgan sug'urta ma'lumotlari majmuasini axborotlashtirish amaliyoti bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, bu kompaniyada hozirgi kunda, sug'urta sub'ektlarining o'zaro majburiyatlari, ya'ni sug'urtalanuvchining ushbu majburiyatlar bilan bog'liq ma'lumotlarigina axborot tizimi asosini tashkil etadi. Buning barchasi, axborot tizimlari va texnologiyalari sug'urta sohasiga to'laqonli tatbiq etilmaganligidan darak beradi. Ayni paytda, sug'urta qiluvchining 84 faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida takomillashtirish masalasi qo'yilmagan. Shu bilan birga, sug'urta sohasidagi mavjud AKT bozorida mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mukammal mahsulotlar hozirga qadar taklif etilmagan. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari juda katta risklar bilan bog'liq bo'lgan imkoniyati chegaralangan xususiy yechimlarni ishlab chiqqan holda axborot tizimlarini mustaqil rivojlantirishda davom etmoqdalar. Shularni e'tiborga olgan holda yaqin kelajakda xorijiy mahsulotlarga bo'lgan talab oshib ketishini bashorat qilish mumkin.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Sug'urtalashda axborot tizimlarini raqamlashtirishga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
2. Kompyuter tarmoqlari va masofadan turib foydalanish qanday sabablarga ko'ra ish samaradorligining oshishi va kompaniya foydasining ko'payishiga olib keladi?
3. Ma'lumotlar bazasining qanday uchta darajasi mavjud?
4. Internet-sug'urta bozori birinchi bo'lib qayerda yo'lga qo'yilgan?

### **3-MAVZU. Dunyo mamlakatlarida aqlli sug'urta xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va strategiyalari. (2 soat).**

---

#### **Reja:**

1. Aqlli sug'urta xizmatlari, ularning paydo bo'lishi va xususiyatlari.
2. Raqamli sug'urtaning biznes modellari.

☞ **Tayanch iboralar:** Aqlli sug'urta, sug'urta telematikasi, raqamli sug'urta, sun'iy intellekt.

#### **1. Aqlli sug'urta xizmatlari, ularning paydo bo'lishi va xususiyatlari.**

Sug'urtada xavfini optimallashtirish uchun telematikadan foydalanishning birinchi urinishlari qariyb yigirma yil oldin paydo bo'lgan va dastlab "aqlli sug'urta"

(Smart insurance) deb nomlangan. Rahbarlar orasida kashshof provayder, AQShdagi Progressive sug'urta kompaniyasi bor edi, u sug'urta telematikasi bilan bog'liq bir qator dala sinovlarini o'tkazdi va 1990-yillarning o'rtalaridan beri bir qator tegishli patentlarni oldi. 2000-yillarda haqiqiy sug'urta telematikasi bo'yicha takliflar paydo bo'la boshladi, jumladan: birinchi progressive sug'urta mahsuloti 2004 yilda chiqarilgan. Biroq, o'sha davrda telematika firibgarlik va o'g'irlikka qarshi kurashga qaratilgan edi.

Keyinchalik, maxfiylik bilan bog'liq xavotirlar biroz yumshay boshladi, masalan, smartfonlar portlashi doirasida turli xil joylashuvga asoslangan xizmatlarning tobora ko'payib borishi. 2010-yillarda davom etayotgan ishlanmalar hatto avtomobil ishlab chiqaruvchilarning mahalliy telematik platformalaridan va ma'lumotlarni yig'ish uchun smartfonlardan, shuningdek, qo'shimcha bort qurilmalarining an'anaviy ikkilamchi bozoridan foydalanishga imkon berdi. Umuman Telematika va xususan sug'urta telematikasi endi katta ma'lumotlar inqilobidan keyin asosiy dasturlar sifatida tan olindi. Bugungi kunda sug'urta telematikasi telematik texnologiyalarning tez rivojlanayotgan sohasi bo'lib, u turli xil tushunchalarni, shuningdek, infratuzilma komponentlarining doimiy rivojlanib borayotgan spektrini o'z ichiga oladi. Shuningdek, sohaga kiruvchi o'yinchilar uchun bir qator muqobil biznes modellari paydo bo'ldi.

Bugungi kunda sug'urta telematikasi telematik texnologiyalarning tez rivojlanayotgan sohasi bo'lib, u turli xil tushunchalarni, shuningdek, infratuzilma komponentlarining doimiy rivojlanib borayotgan spektrini o'z ichiga oladi. Shuningdek, sohaga kiruvchi o'yinchilar uchun bir qator muqobil biznes modellari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, dunyo to'xtamaydi – texnologiya yangi bosqichga ko'tarildi, mashinalarning o'zi "aqlli" bo'lib qoldi, Telematika, ko'p hollarda, endi qo'shimcha uskunalarni talab qilmaydi. Bularning barchasi, o'z navbatida, "aqlli sug'urta"ga ta'sir qildi.

Raqamli transformatsiyaning kelishi bilan kompaniyalar sanoat spetsifikatsiyasini saqlab qolgan holda texnologik to'ldirishga ko'proq e'tibor qaratdilar. Katta ma'lumotlardan (BigData) hayotimizning barcha sohalarida tobora ko'proq foydalanilmoqda - bu katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va yangi matematik ma'lumotlar modellarini yaratishga imkon beradi. Sun'iy intellekt (AI) – bu ma'lumotlar massivlarini qayta ishlashga imkon beradi va mashinani o'rganish (ML) – bu ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini doimiy ravishda takomillashtirishga imkon beradi. Birgalikda "raqamlashtirish" deb nomlangan ushbu texnologiyalar yaqinda imkonsiz bo'lib tuyulgan muammolarni hal qilishga imkon beradi! Albatta, "raqamlashtirish" "ko'p jihatdan" aqlli sug'urta " omillarini qayta ishlashning asosiga aylanadi, bu umuman harakat xavfsizligiga ham, aktuar xavflarni optimallashtirish imkoniyatlariga ham ta'sir qiladi. Har jihatdan va yuqorida tavsiflangan sabablarga ko'ra, "aqlli sug'urta"dan sug'urta telematikasi munosib ravishda "raqamli sug'urta" toifasiga o'tdi.

Har qanday texnologiya, ayniqsa iste'molchilar biznesiga yo'naltirilgan texnologiya, tijorat muvaffaqiyati uchun investitsiyalarga sezilarli darajada qaytishi kerak. "Raqamli sug'urta" texnologiyalari, birinchi navbatda, tijorat kompaniyalari (avtomobil ishlab chiqaruvchilar, sug'urta kompaniyalari va boshqalar) uchun



mo'ljallangan bo'lib, ular o'z navbatida ularni mijozlarga qandaydir shaklda taklif qilishadi. Boshqacha qilib aytganda - hozirgi bozor va "raqamli sug'urta" texnologiyalari bozorining o'sish potentsiali hozirgi bozorning ozgina qismini va "raqamli sug'urta"ning tayyor biznes echimlaridan foydalangan holda tijorat o'sishi imkoniyatlarining o'sish potentsialini aniq namoyish etadi.

Umuman olganda, avtoullov sug'urtasida haqiqiy foydalanishga asoslangan "raqamli sug'urta" echimlari odatda tezlikni, tezlanishni va keskin tormozlanishni, shuningdek, haydovchi yo'lda bo'lgan kunning (Telematika) masofasi va vaqtini o'lchaydi. Haydovchi mashinani qanchalik yaxshi va xavfsizroq boshqarsa, avtomobil sug'urtasi stavkalari shunchalik past bo'ladi. Haydash uslubi, albatta, muhim bo'lsada, boshqa omillar ham bor, masalan, yurish masofasi, joylashuvi, mashinadan foydalanish vaqti va hatto ob-havo sharoiti. Avtomobilning telematik ma'lumotlarini kuzatish uchun ishlatiladigan texnologiyalar turlicha. Odatda avtomobilni boshqarish bilan bog'liq ma'lumotlar (Telematika) quyidagi yo'llar bilan to'planadi:

\* BMW ConnectedDrive yoki GMONSTAR kabi avtomobilga o'rnatilgan tizimlar orqali;

\* Avtomobilning bort diagnostikasi portiga (OBD-II) ulangan qurilma orqali;

\* Smartfon ilovasi orqali;

\* Old yoki orqa oynaga o'rnatiladigan va Bluetooth orqali smartfonga ulanadigan "yorliq" deb nomlangan qurilma orqali;

\* Bortdagi avtomobil diagnostikasi tizimiga (CANBUS) ulanadigan "qora quti" deb nomlangan qurilma orqali.

Avtomobilni boshqarish odatlari avtomobil sug'urtasi stavkalariga qanday ta'sir qilishi sug'urtalovchiga bog'liq, ammo odatdagi "raqamli sug'urta" rejasida haydash odatlari ma'lum vaqt davomida kuzatiladi. Dastlabki tekshirish muddati tugagandan so'ng, haydovchiga telematik ma'lumotlarga asoslangan chegirma taklif qilinishi mumkin. "Raquamli sug'urta", albatta, xavfsiz haydovchilar uchun foydalidir. Ba'zi sug'urta kompaniyalari hatto dasturda qatnashish uchun avtomatik chegirma berishadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi sug'urta kompaniyalari avtomobilni sig'urta qilishda, agar haydovchi haydash uslubini tekshirish bosqichida etarli ball to'plamasa, sug'urta mukofotlarini oshirishi mumkin. Masalan, tezlikni oshirish kabi xavfli haydash odatlari an'anaviy narx siyosatiga qaraganda yuqori mukofotga olib kelishi mumkin. Agar haydovchi beparvo bo'lsa va ko'pincha qoidalarni buzsa, "raqamli sug'urta" tizimi ularga qilgan xatolarini ko'rsatib, yondashuvni o'zgartirishga yordam beradi.

AQShdagi haydovchilarga ma'lum "raqamli sug'urta" echimlaridan foydalanganlik uchun haydovchilarga qanday chegirmalar taqdim etilishini ko'rib chiqaylik. Haydovchilar shunchaki ishtirok etish uchun narx siyosatidan 10% gacha va qo'shimcha ravishda xavfsiz haydagani uchun 40% gacha chegirma olishadi. Ya'ni-narx siyosatining yarmigacha. "Raquamli sug'urta" rasmiy ravishda "foydalanishga asoslangan sug'urta" [Usage-based insurance – UBI] deb nomlanadi va uchta asosiy yondashuvga bo'linadi:

1. Yurish uchun to'lov [Mileage based Insurance].
2. To'lash-qachon-siz-haydash [pay as you drive-PAYD].
3. To'lash-qanday-siz-haydash [Pay How You Drive-PHYD]/

Kilometr uchun to'lash haydovchilarga umumiy stavkada to'lashga imkon beradi, faqat sayohat paytida mashinada yurilgan masofani to'lash va odatda qisqa muddatli sayohatni sug'urtalash narxini hisoblash uchun qo'llaniladi.

## 2. Raqamli sug'urtaning biznes modellari.

Quyida "raqamli sug'urta"ning ikkala asosiy yondashuviga oid asosiy fikrlar keltirilgan.

### “Raqamli sug'urta”ning biznes modellari

|               | Kilometrga e'tibor qaratish {PAYD}   | O'zini tutishiga e'tibor qaratish {PHYD}  |
|---------------|--|---|
| Prinsip       | Baho siyosati yurgan kilometruga asoslanadi  | Tezlikni oshirish va tormozlash kabi xulq-atvor ma'lumotlari bo'yicha narx siyosati   |
| Afzalliklari  | Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash nuqtai-nazaridan yondashuv kamroq e'tiborda   | Foydalanuvchi xavfiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish. Da'volarni kamaytirish uchun foydalanuvchilarni xavfsiz haydash uchun mukofotlaydi.      |
| Kamchiliklari | -foydalanuvchi xavfini yaxshiroq baholashga yordam beradigan muhim ma'lumotlarning etishmasligi;<br>-xavfsiz haydash uchun mukofotlanmaydi;<br>-Uzoq yo'l bosadigan haydovchilar uchun jozibali taklif emas. | -murakkab ma'lumotlar xavfni baholash uchun keng qamrovli tahlilni talab qiladigan ballar;<br>- qisqa masofa bosib o'tgan haydovchilar mukofotlanmaydi. |

"Raqamli sug'urta" biznes modellaridan tashqari, yana bir atamani alohida ta'kidlash kerak: o'z qurilmangizni olib keling [o'z qurilmangizni olib keling — BYOD]. BYOD "raqamli sug'urta" taklifi mobil telematikaning tobora ommalashib borayotgani tufayli eng tez o'sib borayotgan segment bo'lishi kutilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, "raqamli sug'urta" tizimlari turli xil qurilmalardan, shu jumladan smartfonlardan ma'lumotlarni olishlari mumkin, bu esa iste'molchilar va provayderga tashqi qo'shimcha ma'lumot yig'ish moslamalarini sotib olish yoki qo'shmasdan "raqamli sug'urta" imtiyozlaridan foydalanish yoki taklif qilish imkonini beradi.

"Raqamli sug'urta" echimlarining dastlabki izdoshlari katta afzalliklarga ega "UBI sug'urtasida muvaffaqiyat kaliti erta o'tish bo'ladi. Sug'urtalovchilar tizimlarni iloji boricha tezroq joylashtirishga katta ehtiyoj sezadilar, chunki mijoz o'rnatgan birinchi modul uning oxirgisi bo'lishi ehtimoli bor. Sug'urtalovchi mijozning xatti-harakatlari to'g'risida bilib, o'z xavfini aniq va arzon narxlarda sug'urta qila olsa, mijoz sug'urtalovchini almashtirishi dargumon. Raqobatchi sug'urta kompaniyasi har doim mijozning haydash xatti-harakatlaridan bexabar holda noqulay ahvolga tushib qoladi".

Sug'urta kompaniyalari sukut bo'yicha "raqamli sug'urta" ning asosiy manfaatdor tomonlari bo'lganligi sababli, ular uchun imtiyozlarni diqqat bilan ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri keladi. Sug'urta telematikasi an'anaviy omillarga nisbatan xavfni baholashni bosqichma-bosqich takomillashtirishni ta'minlaydi, bu asosan transport vositalarining qanday, qancha, qachon va qayerda ishlashini ko'rsatadi. Sug'urtalovchilar batafsil telematik ma'lumotlarni kontekstli ma'lumotlar, siyosatlar va kompensatsiya ma'lumotlari bilan birlashtirib, xavflarni yuqori aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beruvchi baho olishlari mumkin. Agar to'g'ri bajarilgan bo'lsa, sug'urtalovchilar ikki xonali o'sishni ta'minlaydigan, an'anaviy omillardan tashqari o'sishni optimallashtiradigan va yo'l-transport hodisalarini keltirib chiqaradigan omillarni aniqlaydigan baholashni yaratishi mumkin.

Klassik (telematik bo'lmagan) xavf modellarining bashorat qilish darajasini telematik va gibrid (telematik va an'anaviy omillar) modellari bilan taqqoslagan 2018\* yilgi tadqiqot shuni ko'rsatdiki, klassik model eng kam bashorat qilinadi. AQShda "raqamli sug'urta" bo'yicha yetakchi Progressive Insurance haydovchining xatti-harakati an'anaviy xavf omillari bilan solishtirganda baxtsiz hodisalar ehtimolini ikki baravar ko'proq oldindan belgilab qo'ygan natijalarni e'lon qildi. Milliman tadqiqotida telematikaga asoslangan xavf shkalasi e'lon qilindi, bu faqat an'anaviy omillarga qaraganda 6 baravar kuchliroqdir. Octo, DriveAbility™ Score xavfini baholash 10-12 gacha bashorat qilishni oshirishi isbotlangan.

Haydash uslubi bo'yicha qisqa va uzoq muddatli xulq-atvor mulohazalari: zudlik bilan ogohlantirishlar, kundalik hisobotlar va haydovchilarni baholash "raqamli sug'urta" foydalanuvchilari uchun fikr-mulohazalarni taqdim etadi, bu esa haydovchilarga haydash odatlari xavfsizlikka qanday ta'sir qilishini tushunish va shunga mos ravishda javob berish imkonini beradi. Tezkor fikr-mulohazalar haydovchilarga o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishga yordam beradi, trend hisobotlari va haydash ballari esa xatti-harakatlarning o'zgarishini kuchaytirishga va uzoq muddatda odatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Xavfsiz haydashni rag'batlantirish: xavfsiz haydash uchun taqdim etiladigan sug'urta chegirmalari xavfsizlik sohasida erishilgan yutuqlarni mustahkamlashga yordam berish orqali xatti-harakatlarning yaxshilanishini rag'batlantiradi. Gamifikatsiya haydovchilarni takomillashtirish markazini reaktiv fikr-mulohazalardan proaktivga o'tkazadi. Haydovchilarni xavfsizroq xatti — harakatlarga undash orqali — mukofot Kupon, pul mukofoti yoki chegirma bo'ladimi - "raqamli sug'urta" odamlarga yomon haydash tanqidini kutmasdan, darhol xavfsizroq haydashga yordam beradi.

Haydash paytida chalg'itadigan narsalarning kamayishi: at & T ma'lumotlariga ko'ra, haydovchilarning 70 foizi haydash paytida smartfonlaridan foydalanadilar. AQShdagi barcha yo'l-transport hodisalarining oltmish to'rt foizi mobil telefonlardan foydalanish bilan bog'liq. Telematikaga asoslangan mobil ilovalar kimdir haydab ketayotganini aniqlashi va haydashdan chalg'itishni kamaytirish uchun kiruvchi matnli xabarlar, qo'ng'iroqlar yoki boshqa uyali telefon xatti-harakatlarini cheklashi mumkin. Telematik qurilmalar, shuningdek, chalg'ituvchi haydash alomatlarini aniqlay oladi, haydovchiga bu hodisalar haqida xabar beradi va bu xatti-harakatlarning xavfsizlikka ta'siri haqida xabardorlikni ta'minlaydi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Avtoullov sug'urtasida "raqamli sug'urta" nimalarni aniqlash imkonini beradi?
2. Avtomobilni boshqarish bilan bog'liq ma'lumotlar (Telematika) qanday yo'llar bilan to'planadi?
3. AQSHda haydovchilar shunchaki ishtirok etish uchun narx siyosatidan nacha foizgacha va xavfsiz haydagani uchun necha foizgacha chegirma olishadi?

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-MAVZU. Milliy sug‘urta bozorida yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirishda “Big data” texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar. (4 soat)

---

#### Reja:

1. Sug‘urta sohasida yagona ma’lumotlar bazasining o‘rni va zarurligi.
2. “Big data” texnologiyasi va uni qo‘llash masalalari.
3. “Big data” texnologiyasi asosida ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash.
4. O‘zbekistonda “Big data” texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari va muammolari.

#### 🔗 Tayanch iboralar:

Axborotlashgan jamiyat, *axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, sug‘urtada axborot texnologiyalari, ma’lumotlar bazasi, big data texnologiyasi.*

### Sug‘urta sohasida yagona ma’lumotlar bazasining o‘rni va zarurligi.

XXI asrda, iqtisodiyotning turli sohalarida axborot tobora markaziy o‘rinni egallamoqda, zamonaviy jamiyatni raqamlashtirish davr talabiga aylanmoqda. Bugungi kunda foydalanilayotgan ma’lumotlar hajmi yuzlab terabayt va petabaytlarni tashkil etmoqda. Sanoat, biznes, tibbiyot, sug‘urta sohasida strategik qarorlarni qabul qilish va biznes jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur matn, raqamli, audio, foto, videoma’lumotlar oqimi doimiy ravishda oshib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, video, audio va geolokasiya xizmatlarining rivojlanishi natijasida axborot mahsulot va xizmatlariga talab doimiy ravishda oshib bormoqda. Mijozlarga bunday xizmatlarni taklif qilish uchun korxonalar va tashkilotlarda turli manbalardan olingan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish zarur. Tahlil qilish natijasida davlat boshqaruv organlari, telekommunikasiya va internet provayderlari, banklar, energetika va tijorat kompaniyalari uchun to‘plangan ma’lumotlar strategik ahamiyatga ega aktivga aylanadi va shu bilan birga, ularning faoliyat natijalari boshqaruv samaradorligiga bog‘liqdir. Axborot hajmining oshishi ko‘p miqdordagi ma’lumotlarni samarali qayta ishlashga qodir bo‘lgan dasturiy ta’minotning rivojlanishi, shuningdek, axborotlarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va uzatish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirish bilan birga amalga oshiriladi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun mo‘ljallangan platformaga ehtiyojning oshishi va “Big Data” (“Katta ma’lumotlar” deb nomlangan) xizmatlarini rivojlantirishning eng dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan bunday ma’lumotlarni minimal xarajat bilan tezda qayta ishlashga qodir texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda .

Accenture konsalting kompaniyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni

ko'rsatdiki, sug'urta kompaniyalari rahbarlarining 79 foizi Big Data texnologiyasidan foydalanmaydigan raqobatchilarning raqobatda yutqazib qo'yishlari ehtimoli yuqori ekanligini ta'kidlashgan .

Sug'urta sohasi riskka asoslangan soha bo'lganligi tufayli har doim ma'lumotlar tahliliga asoslangan holda ish ko'radi. Baxtsiz hodisalar statistikasi va sug'urtalangan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari odamlarni turli xavf toifalariga guruhlash va foyda hamda xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Kyivstar kompaniyasi mutaxassislari Big Data bilan ishlashni kompaniya ichkarisidan boshlashni tavsiya etadi. Katta ma'lumotlar algoritmlarini amalga oshirish, aqliy fikrlashni talab qiladigan ko'plab jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Ya'ni: tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urtalangan shaxsning kasallik tarixini tezda tekshirish, arizalarni ko'rib chiqishni avtomatlashtirish va shu asosda mijozlarga tez hamda sifatli xizmatlarni taqdim etish. Raqamli texnologiyalardan foydalanish xodimlarning vaqtini 50 % gacha tejashga yordam beradi, ushbu imkoniyatdan ular samarali foydalangan holda, tejalgan vaqtlarini ko'proq daromadli ishlarga sarflashlari mumkin bo'ladi. Katta ma'lumotlar texnologiyasi kompaniyada qo'lda amalga oshirib kelingan ko'plab jarayonlarni komp'yuterlashtirishga yordam beradi, ilovalarni qayta ishlash va boshqaruv xarajatlarini kamaytish imkonini beradi. Raqobat sharoitida bu tadbirlar sug'urta xizmatlari narxining pasayishiga olib keladi, natijada yangi mijozlar paydo bo'ladi. Masalan, Kyivstar kompaniyasi tomonidan Ukraina sug'urta kompaniyalari uchun quyidagi xizmatlarni taklif etmoqda :

- mijozning profilini tahlil qilish;
- sug'urta to'g'risidagi takliflarni berish uchun maqsadli auditoriyalarni aniqlash;
- sug'urta hodisalari ro'y berishining skoring prognozini amalga oshirish.

Sug'urta sohasida katta ma'lumotlarni qo'llash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- marketing va sug'ura polislarini sotish;
- sug'urtaga qabul qilinayotgan riskni baholash va tariflarni belgilash;
- sug'urta tovlamachiligiga qarshi kurash;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta.

Shu bilan birga, katta ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ma'lumotlar bazasiga ishonchsiz ma'lumotlarning kirib qolishi;
- modellashtirishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi;
- opportunistik (o'z manfaati yo'lida) hatti-harakatlarning yuzaga kelishi;
- ma'lumotlar maxfiyligiga duch kelish natijasida ularni olish imkoniyatining yo'qolishi.

Keltirilgan muammolarni katta ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalasiga jiddiy qaragan holda, ya'ni kiritilayotgan ma'lumotlarni ishonchli manbalardan olishga va ularni ekspertizadan o'tkazish orqali yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish mumkin deb hisoblaymiz.

## **“Big data” texnologiyasi va uni qo'llash masalalari.**

«Big Data» atamasi «katta ma'lumotlar» degan ma'noni bildirib, uni birinchi marta 2008-yilda «Nature» jurnalining muharriri Klifford Linch ishlatgan. U dunyoda axborot hajmlarining jadal sur'atlarda o'sishi haqida gapirib, faqatgina yangi vositalar va yanada ilg'or texnologiyalar ularni o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidlagan. Linch «katta ma'lumotlar»ga sutkasiga 150 Gb hajmda bo'lgan har qanday ko'rinishdagi ma'lumotlar tegishli deb hisoblaydi, ammo hanuzgacha ma'lumotlarni yagona o'lchov birligi mavjud emas.

Big Data (katta ma'lumotlar) texnologiyasi bu – katta hajmdagi tizimlashgan va tizimlashmagan ma'lumotlarni qayta ishlash va interpretasiyalash instrumentlari va usullari yig'indisidir. Bunday katta ma'lumotlarning manbalari bo'lib, turli ko'rinishdagi qurilmalarning ma'lumotlari, ijtimoiy tarmoqlar va servislarning (masalan yandeks karta) ma'lumotlari hamda uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar (masalan sug'urtalanuvchining sug'urta tarixi) bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda har qanday shaxs katta hajmdagi ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan, elektron pochta hamda onlayn-to'lov tarmoqlaridan oladi. Mazkur shaxs olayotgan ma'lumotlar tarkibi va xususiyatidan kelib chiqib uning xohish-istaklarini aniqlash mumkin. Bunday tizimlashmagan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, sug'urta kompaniyalari yangi mijozlarni jalb etish uchun maqsadli reklama kompaniyalarini tashkil etishlari mumkin.

Har qanday sohadagi mijozlar o'z sohasida mutaxassis bo'lgan kompaniyalar bilan ishlashni xoxlashadi. Agentliklarning ma'lum sohaga ixtisoslashuvi ko'proq xoxlovchilarni jalb qilish imkonini beradi, chunki bunday holatda potensial sug'urtalanuvchi amaldagi sug'urtalanuvchilarda qanday holatlarda va qanday hajmda qoplama olish imkoniyati borligi va ular buning uchun qancha sug'urta badali to'layotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Boshqa segmentlarga nisbatan, ayniqsa sayohat sug'urtasida katta ma'lumotlardan (Big Data) foydalanish imkoniyati yuqori va ular bu imkoniyatdan samarali foydalanishadi. Polis bahosining pastligi va chet el sayohati uchun sug'urtaning ko'p hollarda majburiyligi sug'urtalanish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtini qisqartiradi. Big Data esa mijozlar bilan bo'ladigan sug'urtaviy munosabatlarni tezlashtiradi, muloqotni avtomatlashtiradi va tezda foydali taklifni ishlab chiqadi.

Mulk va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash landshafti ko'proq kelajagi bor yo'nalishlar hisoblanadi, chunki Big Data risklar va mijozning hatti-harakati o'rtasidagi empirik aloqalarni aniqlash imkoniyatiga ega. Misol uchun, ba'zi avtokorxonalar yo'l sharoitlarini xabar qilingan baxtsiz hodisalar jami asosida baholaydilar va mijozlarning yo'nalishlarini tekshiradilar.

Katta ma'lumotlarni joriy qilish uzluksiz ravishda o'sib bormoqda va sug'urta kompaniyalari ushbu maqsadlar uchun katta hajmda mablag'lar kiritmoqda. Natijada sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaxshilanmoqda va narxi pasaymoqda.

Big Data texnologiyalarini samarali yo'lga qo'yish sug'urta kompaniyasida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish darajasi bilan bog'liq. Zamonaviy elektron-raqamli dunyo sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiluvchi risklarni imkon qadar aniq va to'g'ri baholash maqsadida sug'urtalovchilarni

keng qamrovli ma'lumotlar bilan ta'minlab, sug'urta faoliyati uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Shu bilan birga, risklarni baholashning sifatli modelini shakllantirishga va sug'urta hodisalarining yuz berish ehtimolini prognoz qilishga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ommaviylashuvi va takomillashuvi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiyotning tuzilmasi va ta'limga ta'sir ko'rsatadi, kommunikasiyalar, hisoblash quvvatlari, axborot tizimlari va servislarga yangi talablarni belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda rivojlangan platformalarsiz texnologiyalar, institusional va infratuzilmaviy muhitlarsiz bozorlar va faoliyat sohalarining dinamik rivojlanishi amalga oshmasligi muqarrar .

### **“Big data” texnologiyasi asosida ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash.**

Dunyoda raqamlangan ma'lumotlar hajmi tinimsiz o'sib bormoqda. IBC kompaniyasining ma'lumotlariga qaraganda, 2003 yilda 5 eksabayt (1 eksabayt = 1 milliard gigabayt) ma'lumot yig'ilgan. 2015-yil may oyiga qadar dunyoda yig'ilgan ma'lumotlar hajmi 6,5 zettabaytdan oshgan bo'lsa, 2020-yilda insoniyat 40-44 zettabayt raqamli ma'lumot hosil qilgan.

«Big Data» – bu juda tez sur'atlarda o'sib borayotgan katta hajmdagi tizimli va tizimsiz raqamli ma'lumotlar to'plami. «Big Data» biznes jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, to'plangan ma'lumotlarga asoslangan eng samarali qarorlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida axborotni saqlash va qayta ishlashning innovatsion usullarini o'z ichiga oladi.

«Katta ma'lumotlar» tushunchasi o'zi nisbatan yangi bo'lsa-da, aslida uning kelib chiqishi birinchi ma'lumotlar markazlari va relyasion ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish boshlangan 1960-1970-yillarga to'g'ri keladi.

2005-yilda odamlar Facebook, YouTube va boshqa onlayn xizmatlar foydalanuvchilari qancha ma'lumot ishlab chiqarayotganini tushuna boshladilar. Shu yili Hadoop (katta ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun maxsus yaratilgan ochiq kodli platforma) ishlab chiqildi.

2011-yilga qadar katta ma'lumotlar tahlili faqat ilmiy-statistik tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan, ammo 2012-yilning boshiga kelib ma'lumotlar hajmining katta ko'lamda o'sishi sababli ularni tizimlashtirish va amalda qo'llash ehtiyoji tug'ildi.

2014-yildan boshlab, katta ma'lumotlarga amaliy muhandislik va IT mutaxassislar tayyorlaydigan dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari ye'tibor qaratishdi. Keyin Microsoft, IBM, Oracle, YEMC, undan keyin esa Google, Apple, Facebook va Amazon kabi yirik korporatsiyalar qo'shildi. Bugungi kunda katta ma'lumotlar yirik kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan turli sohalarda ishlatilmoqda.

Barcha yig'ilgan Big Data ma'lumotlari olingan manbalarga qarab tasniflanishi mumkin. AQShning Gartner kompaniyasi «katta ma'lumotlar»ga kiritilgan ma'lumotlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

**1) Operatsion ma'lumotlar.** Bu onlayn tranzaksiyalarni qayta ishlash jarayonida mavjud bo'lgan yoki onlayn tahliliy ma'lumotlar bazasidan olingan mijozlar, yetkazib



beruvchilar, hamkorlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar. Odatda tranzaksiya ma'lumotlari, aloqa ma'lumotlari va jismoniy shaxslar haqidagi umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha bunday ma'lumotlar qo'shimcha sensorlar va korxonalar jarayonlarini monitoring qilish yordamida muvaffaqiyatli to'planadi. Masalan, bank tizimiga ulangan kassa apparatlari, aqlli hisoblagichlar, ovozli aloqa, radiochastotani identifikatsiyalash va boshqalar;

**2) «Qorong'i» ma'lumotlar.** Tashkilotlar tomonidan ataylab saqlanmaydigan yoki to'planmagan, lekin biznesni yuritish yoki tarmoq xizmatlari bilan ishlash jarayonida tasodifiy (yo'lda) yaratilgan va Internet arxivlarida qoladigan ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlar ommaga ochiq va qisman tahlil qilish uchun tuzilgan, jumladan, elektron pochta xabarlar, elektron shartnomalar, hujjatlar, multimedia, tizim jurnallari va boshqalar;

**3) Tijorat ma'lumotlari.** Katta ma'lumotlar texnologiyasi imkoniyatlari paydo bo'lishidan oldin, turli sohalarda qimmatli tijorat ma'lumotlarining agregatorlari mavjud edi. Ushbu agregatorlar obuna ma'lumotlarining o'z kataloglariga to'liq kirishni ta'minlaydi. Biroq zamonaviy bozor munosabatlarining potensial investorlar va mijozlar uchun ma'lumotni ochishga yo'naltirilganligini hisobga olgan holda, tijorat manfaatlariga oid ko'plab ma'lumotlar raqamli muhitda ochiq joylashtiriladi;

**4) Rasmiy ma'lumotlar.** Davlat organlari tomonidan tarqatiladigan ma'lumotlar (bayonotlar, press-relizlar, ob-havo prognozlari, munitsipal rivojlanish rejalari to'g'risidagi ma'lumotlar), ochiq davlat registrlari, e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlar (shu jumladan, ularning loyihalari) eng ishonchli va eng ko'p tuzilgan hisoblanadi;

**5) Ijtimoiy tarmoqlar va xizmatlardan olingan ma'lumotlar.** Yirik ijtimoiy tarmoqlarning (Facebook, VKontakte, LinkedIn, Twitter, Instagram va boshqalar) funksiyalari, biznes, bozor munosabatlarida jismoniy shaxslarning ishtiroki, yangi va istiqbolli mahsulotlar, xizmatlar, kompaniyalar haqida yana bir ma'lumot manbasini yaratdi. Xabarlar, sharhlar, takliflar («repostlar») maqsadli mijozlarni, tijorat imkoniyatlarini, raqobatbardosh munosabatlarni, biznes va potensial hamkorlarni aniqlash hamda prognoz qilish uchun faol foydalaniladi.

Big Data tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlaydi va tizimlaydi, katta ma'lumotlardan ilg'or tahliliy vazifalarni bajarish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Ko'proq katta ma'lumotlar kengaytirilgan tahliliy vazifalar uchun qo'llaniladi, shu jumladan, sun'iy aql ham.

#### **Tahlil qilishning to'rtta asosiy usuli mavjud:**

**1. Tavsiflovchi tahlil (descriptive analytics)** – eng keng tarqalgan usul bo'lib, u «nima bo'ldi?» degan savolga javob beradi hamda real vaqtda kelayotgan va tarixiy ma'lumotlarni tahlil qiladi. Asosiy maqsad ma'lum bir sohadagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablari va uning muntazamligini aniqlash hamda ushbu ma'lumotlardan samarali foydalanish.

**2. Bashoratli tahlil (predictive analytics)** – mavjud ma'lumotlarga asoslanib, voqealarning eng ehtimoliy rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi. Buning uchun shunga o'xshash xususiyatlar to'plamiga ega bo'lgan har qanday ob'yekt yoki hodisalarga asoslangan tayyor shablonlardan foydalanadi.

**3. Retseptiv tahlil (prescriptive analytics)** – bashoratli tahlil bilan solishtirganda undan keyingi daraja. Big Data va zamonaviy texnologiyalar yordamida biznesdagi yoki boshqa faoliyatdagi muammoli nuqtalarni aniqlash va kelajakda qaysi yo‘l bilan ulardan qochish mumkinligini hisoblash mumkin.

**4. Tashxisli tahlil (diagnostic analytics)** – sodir bo‘lgan voqea sabablarini tahlil qilish uchun ma’lumotlardan foydalanadi. Bu hodisalar va harakatlar o‘rtasidagi anomaliyalar va tasodifiy aloqalarni aniqlashga yordam beradi.

Ma’lumotlar yangi boylik manbasiga aylangani sayin, katta ma’lumotlar yechimlari kompaniyalarning o‘sishida tobora muhim rol o‘ynashi kutilmoqda. Kompaniyalar har doim ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lgan, ammo mazmunli ma’lumotlarni olish uchun ma’lumotlarga kirish va qayta ishlash imkoniyati cheklangan. «Katta ma’lumotlar» yechimlari kompaniyalarga ushbu qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi.

«Katta ma’lumotlar» tahlili kompaniyalarning asosini tashkil qilib, real vaqtda katta ma’lumotlar to‘plamini boshqarish, qayta ishlash, optimallashtirishga yordam beradi va qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, katta ma’lumotlar va biznes-tahlilning asosiy maqsadi kompaniyalarga o‘z mijozlarini yaxshiroq tushunishga yordam berish va marketing kampaniyalarini yaxshilashdir.

Ba’zi tarmoqlar katta ma’lumotlardan foydalanishda katta yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, boshqalari hali ham katta ma’lumotlarga yetarli e’tibor qaratishgani yo‘q. 2025 yilga kelib bank sohasidagi katta ma’lumotlar tahlil bozori 62,10 mlrd dollargacha o‘sishi mumkin. Bank sohasidagi katta ma’lumotlarning statistikasiga ko‘ra, jahon bank sektori infratuzilmasi allaqachon katta ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Masalan, 2013-yil holatiga ko‘ra, jahon moliyaviy sektorning 64 foizi allaqachon katta ma’lumotlarni o‘z infratuzilmasiga kiritgan bo‘lib, 2015-yilda bozor hajmi 12 mlrd dollarga yetgan. 2019-yilga kelib katta ma’lumotlarning bank operatsiyalari tahlili bozori 29,87 mlrd dollarni tashkil etdi. 2020-2025-yillar orasida bank sohasidagi katta ma’lumotlar tahlili bozori o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 12,97 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Katta ma’lumotlar bozori 2020-yilda 198,08 mlrd dollarga baholangan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 274,3 mlrd dollargacha o‘sadi va yaqin 5 yillikda yillik o‘sish sur’ati 13,2 foizni tashkil qiladi. 2027-yilga kelib 103 mlrd dollargacha o‘sishi va dasturiy ta’minot segmenti 45 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

BARC ma’lumotlariga ko‘ra, tashkilotlar «katta ma’lumotlar»dan foyda ko‘rmoqda. Xususan, strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati 69 foizga, operatsion jarayonlar ustidan ko‘proq nazoratni qo‘lga kiritish imkoniyati 54 foizga, iste’molchilarni yaxshiroq tushunish imkoniyati 52 foizga va xarajatlarni kamaytirish imkoniyati 47 foizga o‘sgan. Katta ma’lumotlar imkoniyatlaridan foydalanayotgan kompaniyalar daromadlarining o‘rtacha 8 foizga oshgani va xarajatlari 10 foizga kamayganini e’tirof etishgan.

Forbes 2025-yilga borib real vaqt rejimida 150 zettabayt yoki 150 trln gigabaytdan ortiq ma’lumotlar tahlil qilinishini bashorat qilgan.

Forbes ma'lumotlariga ko'ra, kompaniyalarning 95 foizdan ortig'i tuzilmagan ma'lumotlarning bir nechta to'plamini boshqarishda yordamga muhtoj, kompaniyalarning 40 foizi esa katta ma'lumotlar bilan shug'ullanish kerakligini aytadi. StrategyMRC ma'lumotlariga ko'ra, Hadoop va katta ma'lumotlar bozori hozirda 138,9 mlrd dollarga baholanmoqda va o'rtacha yillik o'sish sur'ati 28,5 foizni tashkil qilgan holda 2022-yilda 30 mlrd dollarga o'sishi kutilmoqda.

Wikibon ma'lumotlariga ko'ra, katta ma'lumotlar, tahliliy va amaliy ma'lumotlar bazasi yechimlari hajmi o'n yil ichida 6 foiz o'rtacha yillik o'sish sur'atida 2017-yildagi 6,4 mlrd dollardan 2027-yilga kelib 12 mlrd dollargacha o'sishi kutilmoqda. Hadoop, Kafka, Spark va TensorFlow kabi katta ma'lumotlar ekotizimidagi ochiq kodli platformalarga bo'lgan talab uning sun'iy intellekt, mashinani o'rganish, chuqur o'rganish yoki ma'lumotlar faniga bevosita murojaat qilishi tufayli kamayishi mumkin. Ammo Hadoop, NoSQL, xotira, oqim va boshqa ko'plab ma'lumotlar bazalari kabi ma'lumotlarni tahlil qilish platformalarining gibridd o'rnatilishi ma'lumotlar ko'lami va ma'lumotlar ishlab chiqarish yechimlari bozor ulushini oshiradi.

Bugungi kunda «Big Data» texnologiyalari bozorida AQShning Amazon.com, Inc., IBM, Microsoft, Oracle, Dell Technologies, Cisco Systems, Inc., Cloudera, Inc., Salesforce.com, Inc., Teradata, Tableau Software, Hewlett-Packard, Prolifics, Inc., Xplenty, Clairvoyant, Teradata, EquBot Inc., Dell Technologies, VMware, Inc. Databrix korporatsiyalari va SAS instituti, Germaniyaning SAP SE va Software AG, Yaponiyaning Fujitsu Limited va CMIC Co., Ltd., Hindistonning Infosys Limited, Xitoyning Huawei Technologies Co., Ltd. va Buyuk Britaniyaning Deloitte Touche Tohmatsu Limited kompaniyalari yetakchilik qilmoqda.

2021-yilda mamlakatlarning global yirik ma'lumotlar va biznes-tahlil bozorida ulushi: AQSh – 51%; Yaponiya – 5,7%; Xitoy – 5,5% Buyuk Britaniya – 5,1%; Germaniya – 4,4%; boshqalar – 28,3%.

«Katta ma'lumotlar»ning kelajagi tahlilchilarni talab qiladi. Katta ma'lumotlar hajmi o'sishda davom etar ekan, unga sho'ng'ish va amaliy tushunchalarni olish uchun o'qitilgan ma'lumotlar tahlilchilariga ehtiyoj ortib bormoqda. «Katta ma'lumotlar» tahlili moliya, hukumat va sog'liqni saqlash kabi sohalarda o'zgarishlar yaratish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi, shuningdek, firibgarlikning oldini olish, tabiiy ofat yuz berganda resurslarni taqsimlash yoki sog'liqni saqlashni yaxshilash orqali odamlar hayotini o'zgartirishga yordam beradi.

### **O'zbekistonda "Big data" texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari va muammolari.**

O'zbekiston sug'urta bozorida 2023 yilda sug'urta tashkilotlari oldidagi asosiy vazifalardan biri aholining elektron siyosatga ommaviy o'tishini ta'minlash, Face ID mijozlarga xizmat ko'rsatishning biometrik axborot tizimini joriy etish, sug'urta da'volarini onlayn tarzda taqdim etishning interaktiv tizimini ishlab chiqish, shuningdek, "mahallabay" tizimi doirasida O'zbekiston mintaqalarida shahar va qishloq aholisini sug'urta himoyasi bilan ta'minlash, shu jumladan, raqamli

platformalardan foydalanish bo'yicha ishlarni davom ettirish va tubdan kuengaytirishdan iborat edi.

Hayot sug'urtasi bozorini internetlashtirishni rivojlantirishga yordam beruvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- internet foydalanuvchilari va internet-tijorat operatsiyalarini amalga oshiruvchilar sonining ko'payishi;
- sug'urtalovchi va sug'urtalangan shaxsning global tamoq asosida munosabatlarini nazorat qilish normalarining yuzaga kelishi;
- sug'urta mahsulotlarini onlayn realizasiya qilish va sug'urta da'volarini masofaviy hal qilishning yuqori rentabelligi;
- sug'urtalashda internet sotuvi konsepsiyasini ishlab chiqish;
- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta xizmatlarini individuallashtirish, ularni taklif qilish, ularni taklif qilish va zararni qoplashga qaratilgan Big Data texnologiyalaridan kengroq foydalanish.

Internet sug'urtaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- sug'urta firibgarligining yuqori darajasi;
  - internet orqali sug'urta operatsiyalarining kiber jinoyatlarga imkon yaratib berishi;
  - mamlakatimizning ayrim hududlarida yuqori sifatli tezlik bilan ishlovchi internet tizimining etishmasligi;
  - sug'urta institutlari va sug'urta madaniyatiga bo'lgan ishonchning past darajasi.
- Sug'urta kompaniyasi veb-saytidagi internet orqali sug'urta qildiruvchi sug'urta polisini sotib olish bo'yicha quyidagi imkoniyatlardan foydalanishi mumkin:
- muayyan sug'urta mahsulotini (sug'urta xizmatini) tanlash;
  - sug'urta qoidalar bilan tanishish va ushbu qoidalar agar ma'qul bo'lsa sug'urta shartnomasini tuzishga rozi ekanligini tasdiqlash;
  - kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish;
  - sug'urta uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;
  - sug'urta shartnomasini tuzish va polis olish uchun kerakli hujjatlarni taqdim etish;
  - sug'urta xizmati narxini hisoblash va to'lash;
  - sug'urta shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish;
  - sug'urta hodisasi yuz berganda bu to'g'rida ariza berish;
  - sug'urta qoplamasini olish.

Mamlakatimizda sug'urta sohasini raqamlashtirish endgina shakllanib borayotgan jarayondir.

O'zbekiston sug'urta tizimi rivojlangan davlatlardan kam bo'lmagan darajada muvaffaqiyatli ishlashga qodir, sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini faol qo'llash bo'yicha hukumat tomonidan qator imkoniyatlar yaratilmoqda, buning samarasi o'laroq kelajakda biznesning kaliti uning kuchli axborot ta'minoti bo'ladi.

O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishi tobora ko'proq sug'urta texnologiyasiga ta'sir etuvchi, lekin uning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmaydigan raqamli iqtisodiyotning yangi turlarini joriy etishga bog'liq. Sug'urta faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida:

- sugʻurta faoliyati samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- oʻzaro va tijorat sugʻurtasining yaqinlashuvi (P2P sugʻurtasi) amalga oshiriladi;
- sugʻurta munosabatlarining ijtimoiylashuvi amalga oshiriladi;
- yangi sugʻurta xizmatlari va mahsulotlari paydo boʻladi;
- sugʻurta sohasida mehnat bozori oʻzgaradi (baʼzi sugʻurta agentlari, past va oʻrta darajadagi mutaxassislarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va robotlari bilan almashtiriladi);
- raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sugʻurta xizmatlarini tanlashda sugʻurtalovchilarning xatti-harakatlari modellarining oʻzgarishi sugʻurta kompaniyalari raqobatini birinchi oʻringa xaridorni tanlash uchun emas, balki foydalanilayotgan raqamli texnologiyada oʻz xizmatlarini tavsiya etish darajasi uchun foydali boʻladi;
- sugʻurtalovchilar tomonidan biznes-jarayonlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish sugʻurtalanganlar bilan muloqot qilish, sugʻurta shartnomasini saqlash, zararlarni qoplash sohalarida sugʻurta dasturlari raqobatbardoshligining raqamli omillari paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda.

### **Nazorat uchun savollar.**

6. Sugʻurta kompaniyalariga katta maʼlumotlar bazasidan foydalanish nima uchun muhim hisoblanadi?
7. Sugʻurta sohasida katta maʼlumotlarni qoʻllash qanday yoʻnalishlarda amalga oshirilishi mumkin?
8. Katta maʼlumotlardan foydalanish bilan bogʻliq qanday muammolar mavjud?
9. “Big data” atamasini dastlab kim tomonidan qoʻllangan va u ushbu tushuncha toʻgʻrisida nimalar degan?
10. Internet sugʻurtaning rivojlanishiga toʻsquinlik qiluvchi omillar nimalardan iborat?

## **2-mavzu: Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sugʻurta xizmatlari koʻrsatishning rivojlanish tendensiyalari. (4 soat)**

### **Reja:**

1. Onlayn xizmat va onlayn sugʻurta xizmatlari. Sugʻurta xizmatlarini taqdim etishni osonlashtirish va tannarxini pasaytirishda onlayn xizmatning oʻrni.
2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida onlayn sugʻurta xizmatlari.

### **☞ Tayanch iboralar:**

*Onlayn sugʻurta polisi, onlayn sugʻurta shartnomasi, onlayn sugʻurta texnologiyalari.*

### **2.1. Onlayn xizmat va onlayn sugʻurta xizmatlari. Sugʻurta xizmatlarini taqdim etishni osonlashtirish va tannarxini pasaytirishda onlayn xizmatning oʻrni.**

Axborot texnologiyalariga oʻtish jarayoni menejment sifatining oʻzgarishi bilan birga kechadigan jarayon boʻlib, bunda menejerlarning tahliliy ishi asosiy oʻrinni egallaydi, ular uchun yangi gʻoyalar va ustuvorliklarni shakllantiradi, axborotni

kompaniyaning asosiy va haqiqatan ham qulay manbalardan biriga aylantiradi, raqamlashtirilgan tizimni yanada rivojlantirish esa axborot texnologiyalari strategiyasining muhim elementi bo'lib xizmat qiladi. Biroq axborot texnologiyalarini qo'llash yetarlicha samarali yo'lga qo'yilgan mehnat sharoitida ko'proq iqtisodiy samara keltiradi. Chunki ma'lum qoidalarga bo'ysunadigan barqaror jarayonlarga raqamlashtiriladi. Agar har bir ish holati o'ziga xos bo'lsa, istisno va tuzatishlar kompaniya faoliyatining tartib-qoidalariga xalaqit bersa, u holda axborot texnologiyalarini joriy etish pul va vaqtni behuda sarflashdangina iborat bo'lib qoladi.

Sug'urta kompaniyalari uchun bu, avvalambor sug'urta bilan bog'liq barcha hujjatlarni yetarlicha uzoq muddat foydalanishni nazarda tutgan holda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi kerakligini anglatadi. Masalan, sug'urtalanish uchun ariza, sug'urta shartnomasi, sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma, shuningdek balansning foyda va zararlar hisobvarag'i va boshqalar. Faoliyatning barcha tartib-qoidalari puxta o'ylangan va ko'rsatmalar shaklida hujjatlashtirilgan bo'lishi kerak. Xususan, kim tomonidan, qanday qilib, qachon va qanday sharoitlarda kompaniya siyosatining ishlab chiqilishi, brokerlar bilan hisob-kitoblarning qanday amalga oshirilishi, to'lovlarning qanday va kim tomonidan amalga oshirishi, zararni kim va qanday baholashi va boshqalar aniqlanishi kerak. Barcha hujjatlarning harakatlanish yo'llari, shartlari va agar ular moliyaviy xarakterga ega hujjatlar bo'lsa, unda pul harakati ko'rsatmalarda bayon qilinishi kerak (yoki diagrammalarda tasvirlangan bo'lsa undan ham yaxshi). Hujjat aylanishining bunday sxemalari har bir hujjatning hayotiy siklini to'liq kuzatib borish va kompaniyadagi hujjatlar aylanishini tahlil qilish, so'ngra uni takomillashtirish – yangi texnologik yechimlar asosida tezlashtirish, soddalashtirish va kerak bo'lganda to'ldirish yoki rivojlantirishga imkon beradi. Agar bu ish amalga oshirilmasa, sug'urta kompaniyasining samarali avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini ishlab chiqish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi.

Sug'urtalashda axborot tizimlarini raqamlashtirishga qo'yiladigan asosiy talablar biznesning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi va ular quyidagilardan iborat: tizimning barcha modullari uchun yagona axborot maydoniga ega bo'lish; keng ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun yetarli darajadagi tezkorlik; tizimga ma'lumotlarni o'rnatishdagi qulaylik va tezkorlik (qonunchilikning o'zgartirishi kabi vaziyatlarda); ma'lumotlarni saqlashning yuqori ishonchliligi.

Ushbu sohadagi firibgarlikning oldini olish uchun sug'urta kompaniyalari to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadigan barcha kompaniyalar uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratish kerak. Sug'urta kompaniyasi faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha universal axborot tizimiga bo'lgan umumiy talabdan kelib chiqib, eng muhim mezon sifatida quyidagilar taklif etiladi: Faoliyatning samaradorligi. Mijozlar sonining tez o'sib borishi, ularni jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar sharoitida kompaniya tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatning tezligi va qulayligi muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanadi.

Kompaniyaning axborot tizimi sug'urta mahsulotini tanlashda, sug'urta



shartnomasini tuzishda, kompaniyaga qay tartibda murojaat etish, ayniqsa sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni undirish bo'yicha eng to'liq xizmatni taqdim etishi kerak. Tizim mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilari: filiallar tarmog'i, brokerlar va sug'urta agentlari uchun axborotni ta'minlashi kerak.

Shunday qilib, tizimga qo'yilayotgan eng muhim talab – bu minimal xarajatlar bilan masofadan turib kirish imkoniyatini ta'minlashdir. Barcha tarmoq tugunlarining ishlashi qo'shimcha texnik xarajatlarsiz amalga oshirilishi, ya'ni tizimning masofadan boshqarish bilan ta'minlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Moslashuvchanlik, yangi mahsulotlarni tezda yaratish va sotish qobiliyati. Sug'urta bozorida o'sib borayotgan raqobat sharoitida mijozlar ehtiyojlarini tezda ilg'aydigan, talab va istaklarni hisobga olgan holda yangi mahsulotlarni o'z vaqtida yaratadigan va sotuvni turli shakllarda tashkil etadigan kompaniyalar g'olib bo'ladi.

Hozirgi sharoitda sug'urta bozoridagi yetakchi kompaniyalar, sug'urta agentlari o'z kompaniyasining yangi takliflari haqida bilmasligi va ofis xodimlari mijozga yangi mahsulotni sotib olishning afzalliklarini tushuntirib bera olmagan vaziyatlarga ko'na olmaydi. Axborot tizimi sug'urta mahsulotlarini shakllantirishning to'liq siklini ta'minlashi kerak: tahlil qilish va hisoblashdan tortib barcha zarur hisobot hujjatlarini tayyorlashgacha va ushbu mahsulotni kompaniyaning buxgalteriya tizimiga qo'shish jarayonlari ham inobatga olinishi lozim.

O'lchovlilik. Barcha kompaniyalar birdaniga axborot tizimiga ko'p pul sarflashga tayyor emaslar. Ushbu qoidaning ravshanligi xuddi shu muammoning yana bir jihati noaniqligini ko'rsatadi: qilinayotgan sarf-xarajatlarning zoye ketmasligi uchun bugungi kunda sotib olinayotgan tizim bir yil ichida, ikki yoki besh yilda kompaniyaning ortib borayotgan biznes talablariga va rivojlanish strategiyasiga javob beradigan kafolatlarni berishi lozim. Shu bilan birga, mijozlar sonining muntazam ortib borayotganini ham hisobga olish zarur, mijozlar sonining ko'payishi butun axborot tizimini to'liq almashtirishni yoki sezilarli darajada qayta tuzishni talab qilishi kerak emas.

Tizimning amal qilish ko'lamini kengayishi, ya'ni imkoniyatlarning o'sishini ta'minlash qobiliyati bir nechta jihatlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, bu miqdor jihatdan kengayish. Mijozlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, sug'urtaning turlari ham ortib boradi. Mintaqaviy kengayish ham juda muhim: tizim kompaniyaning yangi tashkil etilgan nuqtalarida (filiallarida) oddiy va standart ishlashi kerak. Va nihoyat, funksional kengayish, ya'ni yangi sug'urta mahsulotlarini qulay tarzda yaratish va ulardan foydalanish qobiliyati mavjud bo'lishi zarur.

Moliyaviy boshqaruv vositalarining mavjudligi. An'anaviy ravishda moliyaviy menejment, boshqaruv hisobi, tahliliy va byudjet tuzish bilan bog'liq bo'lgan tizim tarkibiy qismlariga qiziqish ortib bormoqda. Har bir ikkinchi potensial mijoz ushbu bloklarni axborot tizimining eng muhim tarkibiy qismi, deb hisoblaydi. Bugungi kunda

aksariyat kompaniyalar tuzilmaviy shaklda ishlaydi va bir emas, balki bir nechta sug'urta mahsulotlarini sotadilar. Shu sababli, kompaniyalar uchun kim va qanday pul topishi, uni nimaga va qancha miqdorda sarflashini aniqlash o'ta muhimdir. Mahsulotlarning qay darajada samaradorlikka olib kelishi ham bir xil ahamiyatga ega.

Xalqaro hisob standartlariga muvofiqligi. Sug'urta kompaniyasining axborot tizimi kamida ikkita omilni hisobga olishi kerak – xalqaro standartlarga muvofiqligi va doimiy o'zgarib turadigan mamlakat standartlariga muvofiqligi. Aktuar hisob-kitoblarning alohida bloklarini yaratish imkoniyati. Kompaniyaning ishonchligi uning tahlil markazining sifati, ya'ni samarali vositalardan foydalangan holda tahlil va aktuar hisob-kitoblar bilan shug'ullanadigan odamlar tomonidan aniqlanadi. Har bir kompaniyaning o'ziga xos noyob tahlil jarayonlari mavjud. Shuning uchun, aktuar hisob-kitoblarni ishlab chiqish uchun o'ziga xos algoritmlarni birlashtirish, shuningdek, ushbu hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va tuzish axborot tizimining muhim talabidir.

Ochiqlik. Tizimning ochiqligi ilgari ishlab chiqilgan bir qator talablarga javob beradi. Biroq maxsus modullar va bloklarni masshtablash va birlashtirish imkoniyatlaridan tashqari tizimning ochiqligi uni doimo o'zgaruvchan biznes talablariga moslashtirishga imkon beradi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini rejalashtirish va boshqarishda axborot texnologiyalarini joriy etish ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, quyidagilar haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish lozim bo'ladi: iqtisodiyotning mintaqalar, kompaniyalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlari; moliyaviy, mehnat va moddiy resurslar. Sug'urta faoliyatini raqamlashtirish zarurligini belgilovchi omillar quyidagilar: ma'lumotlar hajmi; aniqlik va ishonchlikka qo'yiladigan yuqori talablar; mijozlar va sug'urta kompaniyasining moliyaviy holatini samarali tahlil qilish zarurati.

Sug'urta faoliyatidagi taqsimlangan tizimlar mutaxassis tomonidan yaratiladi va taqsimlangan hisoblash tizimlaridan foydalanish qo'llaniladigan muammolarning mohiyatini va ularni hal qilishni tashkil qilishni oldindan belgilab qo'yadi. Sug'urta kompaniyasining xodimlari, bo'limlari, filiallari, alohida iste'molchilar (agentlar, brokerlar) ma'lum bir hududga tarqalib ketadi. Ular hal qiladigan vazifalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi bois ularning hisoblash imkoniyatlari yagona tizimga birlashtirilishi kerak. Bunday holda asosiy yechim kompyuter tarmoqlaridan (mahalliy, ochiq, global) foydalanishdan iborat bo'ladi. Taqsimlangan tizimlarning afzalliklari: yuqori ishonchlik; zaruriy ma'lumotlarning ko'pligi.

Ishonchlik – bu qurilmaning ayrim elementlari ishlamay qolganda va ma'lumotlar to'liq bo'lmagan holda tizimning o'z funksiyalarini bajarishi hisoblanadi. Tizimning ishonchligini yanada oshirish uchun ma'lumotlarning yetarli darajada ko'p bo'lishi asos bo'ladi. Sug'urta kompaniyasining filiallari uchun mazkur tizim quyidagilarni ta'minlaydi: axborot, dasturiy va texnik resurslardan birgalikda foydalanish



imkoniyati; boshqa filiallar bilan aloqa vositalarini ta'minlash; ishni butun tizimda taqsimlashdagi qulaylik. Axborot tizimidagi alohida qismlarning o'zaro ta'sirini samarali tashkil qilish jarayonida ham ayrim muammolarga duch kelinadi. Jumladan, dasturiy ta'minotdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar quyidagilar: operatsion tizim, ya'ni dasturlash tillari va amaliy dasturlarni tanlash; sug'urta kompaniyasi xodimlarini taqsimlangan muhitda ishlashga o'rgatish; foydalanuvchilarning funksiyalarini aniqlash va chegaralash. Kompyuterlarni tarmoqqa ulashda yuzaga keladigan muammolar: xabarlarining yo'qotilishidan himoyalash vositalari talab etiladi (tarmoqning haddan tashqari yuklanishi sababli); o'tkazish qobiliyatini oshirish, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha maxsus choralar talab qilinadi; tijorat sirlarini saqlashni ta'minlash; bir qator foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida ishlashga imkon beradigan tizimdagi muammolarni hal qilish mushkul hisoblanadi.

Kompyuter tarmoqlari va masofadan turib foydalanish quyidagi sabablarga ko'ra ish samaradorligining oshishi va kompaniya foydasining ko'payishiga olib keladi: axborotni qayta ishlash vaqtini qisqartirish; tahlil qilish imkoniyatlarini oshirish. Buning natijasida sug'urta xizmatlarining raqobatbardoshligi oshishiga va bozorda kompaniyaning o'z mavqei shakllanishiga erishiladi. Kompyuter tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib faoliyat yuritadigan sug'urta kompaniyasi uchun quyidagi yangi imkoniyatlar yaratiladi: aloqa yaxshilanadi, ya'ni kompaniya xodimlari va uning mijozlari o'rtasida axborot almashinuvi va o'zaro aloqalar yaxshilanadi; turli idoralarda joylashgan xodimlar umumiy texnologik bazaga ega bo'lgan yagona texnologik platformada ishlaydi; yuqori darajadagi axborot ishonchliligi va samaradorligi tufayli xodimlar asosli qarorlar qabul qiladi; tarmoq va masofadan turib kirish imkoniyati sug'urta kompaniyasiga boshqa turdagi ma'lumot almashish vositalari, masalan, telefon yoki oddiy pochta aloqalarida ishlash ehtiyojini kamaytiradi.

|                              |                        |                       | shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.   |
| Depozitlarni sug'urta qilish | Страхование депозитов  | Insurance of deposits | -banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi  |
| Sug'urta agenti              | страховой агент        | insurance agent       | -sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs   |
| Sug'urta dalolatnomasi       | страховой акт          | insurance act         | -sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi |
| Sug'urta maydoni             | страховая площадь      | insurance area        | -sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan ob'ektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulklarning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan   |
| Sug'urta faoliyati           | страховая деятельность | insurance activity    | -sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati  |
| Sug'urta shartnomasi         | договор страхования    | insurance agreement   | -ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi  |
| Sug'urta foydasi             | страховая прибыль      | insurance benefit     | -sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar - mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xolatlar. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisalarini tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida maydonga chiqadi  |
| Sug'urta huquqi              | страховое право        | insurance law         | -sug'urtalovchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vositachilarning hatti-harakati qoidalari yig'indisi. Sug'urta xuquqi qonun va qonun xujjatlarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi  |
| Sug'urta qoplamasi           | страховое покрытие     | insurance coverage    | -mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i.   |

|                              |                          |                             |   |
|------------------------------|--------------------------|-----------------------------|---|
|                              |                          |                             | Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi   |
| Sug'urta mukofotlari         | страховые премии         | insurance premiums          | -sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalari uchun zararlarni qoplash uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.   |
| Sug'urta kompaniyasi         | страховая компания       | insurance company           | -sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik sub'ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o'rta va kichik guruxlarga bo'lish mumkin  |
| Infratuzilma sub'ektlari     | субъекты инфраструктуры  | insurance entities          | -sug'urta bozorining professional ishtirokchilari   |
| Sug'urta hodisasi            | страховое событие        | insurance event             | -stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqalar tushuniladi. SHaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning xayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan «fors-major» deb yuritiladi   |
| Sug'urta eksperti            | страховая экспертиза     | insurance examination       | -asoslangan xulosa berish maqsadida sug'urta risklarni, sug'urta ob'ektlarni va sug'urta xodisalarini asosiy xususiyatlarini maxsus bilimlar asosida o'rganib chiqish   |
| Sug'urta polisi              | страховой полис          | insurance policy            | -sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur   |
| Sug'urta mukofoti zahiralari | резервы страховых премии | insurance premiums reserves | -hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlarini kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaltiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin |

|                     |                             |                         |  |
|---------------------|-----------------------------|-------------------------|--|
| Sug'urta zahiralari | страховые резервы           | insurance reserves      | -sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zahiralari quyidagilar kiradi: hayotni sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zahiralari va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi   |
| Sug'urta portfeli   | страховой портфель          | insurance portfolio     | -sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan ob'ektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. CHet mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.  |
| Sug'urtalanuvchi    | страхователь                | insured                 | -qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart   |
| Sug'urta riski      | страхование рисков          | insurance risk          | -taxmin qilingan voqea bo'lib, ana shu voqea yuz berishdan ehtiyot shart sug'urta qilish amalga oshiriladi   |
| Sug'urta tizimi     | система страхования         | insurance system        | -1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi: 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat - huquqiy shakli   |
| Sug'urta siyosati   | страховая тарифная политика | insurance tariff policy | -sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta buyicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi  |
| Sug'urta puli       | страховая сумма             | insurance money         | -sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmlariga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan |
| Tibbiy sug'urta     | медицинское страхование     | insurance medical       | -turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga  |

|                                      |                                     |                                       |   |
|--------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|---|
|                                      |                                     |                                       | tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.  |
| Kargo                                | карго                               | kargo                                 | -transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi   |
| Kasko                                | каско                               | kaska                                 | -transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanishi o'z ichiga oladi  |
| Kaf                                  | каф                                 | kaf                                   | -tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar etkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.  |
| Javobgarlikni sug'urtalash           | страхование ответственности         | liability insurance                   | -boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin   |
| Javobgarlikni sug'urtalovchi chegara | Лимит ответственности и страховщика | limit of liability the insurer        | -tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi  |
| Javobgarlik xavfi sug'urtasi         | риск страхования ответственности    | liability insurance for damage caused | -boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtasi   |
| Hayot sug'urta tarmog'i              | сектор страхования жизни            | life insurance sector                 | -jismaniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi.   |
| Sug'urta qoplamasi limiti            | лимит страхового покрытия           | limit of insurance coverage           | -sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'ba korxonasi tomonidan bitta sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasing zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi  |
| Risklarni joylashtirish              | размещат риски                      | locate risks                          | -1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi |
| Ekssedent                            | эксседент                           | loss ekstsedent                       | -noproportional qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan   |

|                                |                               |                                 |  |
|--------------------------------|-------------------------------|---------------------------------|--|
|                                |                               |                                 | qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.  |
| Tibbiy sug'urta                | медицинская страхования       | medical insurance               | aholi sog'lig'ini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki ixtiyoriy bo'ladi  |
| Qo'shma sug'urta kompaniyasi   | совместная страховая компания | mutual insurance company        | -foyda olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va YAponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda YAponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi   |
| Netto foiz stavkasi            | процентная ставка нетто       | net rate                        | -brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi   |
| Sug'urta miqdori               | страховая сумма               | amount of insurance             | -sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.   |
| Sug'urta mukofotini aniqlash   | определяет страховую премию   | amount of the insurance warning | -sug'urta summasi va sug'urta koplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimoligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketse, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. |
| Naf oluvchi                    | бенефициар                    | beneficiary                     | -sug'urta shartnomasida sug'urta-langan shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan sug'urta tovonini oluvchi sifatida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs  |
| Fraxt                          | фрахт                         | bareboat                        | -dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.  |
| Bonus                          | бонус                         | bonus                           | -sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan chegirmalar belgilaydi.   |
| Obligatorli qayta sug'urtalash | облигаторное перестрахование  | bondly reinsurance              | - 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora kayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sedent)   |

|                             |  |                            |  |
|-----------------------------|--|----------------------------|--|
|                             |  |                            | ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.   |
| Keptiv sug'urta kompaniyasi | кептивная страховая компания             | captive insurance company  | -ta'sischilarning manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlarini tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga – «ALSKOM», «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyalarini misol keltirish mumkin   |
| Birgalikda sug'urta qilish  | сострахования                            | coinsurance                | -bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi  |
| Aralash sug'urta            | комбинированное страхование              | combined insurance         | -bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti   |
| Majburiy davlat sug'urtasi  | обязательное государственное страхование | Compulsory state insurance | -qonunda belgilab qo'yilgan tartibda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida hayot, sog'liq va mol-mulkning davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan majburiy sug'urtasi  |
| Majburiy sug'urta           | обязательное страхование                 | compulsory insurance       | -sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin  |
| Avariya komissari           | комиссар аварии                          | Commissioner accident      | -sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi |
| Komission haq               | комиссионные вознаграждение              | commission fee             | -mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bog'liq holda sug'urta badaliga nisbatan foizlarda to'lanadi  |
| Raqobat                     | конкуренция                              | competition                | -sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozoridagi o'z ulushini egallashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta   |

|                   |                       |                   |  |
|-------------------|-----------------------|-------------------|--|
|                   |                       |                   | xizmatini kengayishida va ularning sifatini oshishida muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir necha sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ularga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamalarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi  |
| Risklar to'plami  | сбор рисков           | collection        | -bir qancha yirik sug'urta summali ob'ektlarning bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishi extimolligini nazarda tutuvchi sug'urta risklarini yig'indisi  |
| Sug'urta bahosi   | стоимость страхования | cost of insurance | -sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur  |
| Risklarni tanlash | выбрат риски          | choose the risks  | -sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash – bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora – tadbirlarning bir qismidir.   |
| Franshiza         | франшиза              | deductible        | -sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. SHartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. SHartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.                    |
| Denonsatsiya      | денонсация            | denunciation      | -shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi   |
| Depozit           | депозит               | deposit           | -sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank, odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagani uchun foiz to'laydi; 2) ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi |
| Diversifikatsiya  | диверсификация        | diversification   | -yirik sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishi. Masalan, sug'urta vositachiligi, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, ko'chmas mulk bilan shug'ullanish va xakozo  |
| Dispasher         | диспашер              | dispasher         | -dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus  |

|                           |                                |                          |  |
|---------------------------|--------------------------------|--------------------------|--|
|                           |                                |                          | kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi   |
| Avariya sertifikat        | аварийный сертификат           | emergency certificate    | -mol-mulk sug'urta xodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikati avariya komissari (adjuster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikati sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi  |
| Evropolis                 | европолис                      | evropolis                | -evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi   |
| Ekstradent risk           | ekstradent риск                | ekstsedent risk          | -mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv  |
| Fakultativ qayta sug'urta | факультативное перестрахование | facultative reinsurance  | -proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin   |
| Fronting                  | фронтинг                       | fronting                 | -qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'laligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish  |
| Bosh polis                | генеральный полис              | general policy           | -sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi                                |
| Umumiy sug'urta tarmog'i  | общий страховой сектор         | general insurance sector | -shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari.   |
| Yalpi sug'urta qiymati    | Валовая страховая стоимость    | gross prize              | -sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan xoldagi sug'urta mukofotlari summasi  |
| Umumiy Koeffitsient       | Общий коэффициент              | gross rate               | -sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi  |
| Yashil karta              | зеленая карта                  | green card               | -avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. YAshil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byurolar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byurolar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan. |



|                              |                       |                       |  |
|------------------------------|-----------------------|-----------------------|--|
| Sug'urta                     | страхование           | insurance             | <p>-yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.</p> <p>Har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.</p> |
| Depozitlarni sug'urta qilish | Страхование депозитов | Insurance of deposits | <p>-banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi</p>  |
| Sug'urta agenti              | страховой агент       | insurance agent       | <p>-sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs</p>   |
| Sug'urta dalolatnomasi       | страховой акт         | insurance act         | <p>-sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi</p>   |
| Shomaj                       | шомаж                 | shomaj                | <p>-sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi</p>   |
| Ta'rif stavkasi              | тарифная ставка       | tariff rate           | <p>-sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi</p>  |
| Sedent                       | цедент                | tsedent               | <p>-riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi</p>   |
| Sessiya                      | цессия                | tsessiya              | <p>-1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida sedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi</p>  |

## **VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrirda), 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi “ O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3832-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston -2030” Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

### III. Maxsus adabiyotlar:

14. . Seth Kravitz, Lev Barinskiy, Matt Wilson —Mastering Insurance Marketing UK, 2010. 7-8 pg.
15. Грачев А.В. Основы финансовой устойчивости предприятия // Финансовый менеджмент. – М.: 2003. №4.
16. Исполнительный Комитет СНГ. Роль перестраховочной деятельности в сфере страхования. Москва, 2017 г. с. 6
17. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. Iqt.f.d.diss. – T.: 2012.
18. Abduraxmonov I.X. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 378-b.
19. Абрютин М.С., Грачев А.В. Анализ финансовоэкономической деятельности предприятия. Учебно-практическое пособие. – М.: Дело и сервис, 1998. с. 20 104
20. Арипов А.Н. ва бошқ. Ахборот коммуникацион технологиялари изохли луғати. Т.2004, 36-37 б.
21. Ахвледиани Ю.Т. Страхование. Учебник. – М.: ЮНИТИ, 2010. с. 415
22. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Страхование. Учебник. – СПб.: Питер, 2002. с. 187
23. Бланд Д. Страхование: принципы и практика. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 1998. – 192 с.
24. Ловцов Д.А. Информационная безопасность больших эргатических систем: концептуальные аспекты. М., 1998.
25. Никулина Н.Н., Березина С.В. Страхование. Учебник. – М.: ЮНИТИ, 2008. с. 148
26. Rahmonqulova S.Tadbirkorlar uchun onlayn interaktiv xizmatlar. Qo'llanma. Toshkent, infoCOM.UZ, 2015, 176 bet.
27. Хитрова Т.И, Хитрова Е.М. Информационные технологии в страховании. Учебное пособие. Иркутск Издательство БГУ, 2019. – 97 с.
28. Цыганов А. А., Грызенькова Ю. В., Быстров А. В. Организация интернет-страхования: учеб. пособие. М.: Изд. центр ГУУ, 2004.
29. Шепелин Г. И. Современные киберриски и страхование: состояние и перспективы // Страховое дело. 2017. № 9. С. 21–29.
30. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti. 26. <http://www.Studme.ord> internet sayti ma'lumotlari 27. <http://www.raexpert.ru> ma'lumotlari
31. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta texnologiyalari. Darslik. -Tokent, Iqtisodiyot, 2021.

32. Qo'ldoshev Q.M. “Sug'urta nazariyasi” darslik. T. “Yangi nashr” 2022 y.

#### **IV. Internet resurslar**

33. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

34. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)

35. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

36. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

37. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

38. [www.imf.org](http://www.imf.org)

39. [www.oecd.org](http://www.oecd.org)

40. [www.wto.org](http://www.wto.org)

41. [www.cisstat.com](http://www.cisstat.com)

42. [www.undp.org](http://www.undp.org)

43. [www.ilo.org](http://www.ilo.org)

44. [www.adb.org](http://www.adb.org)